

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2023-yil 15-noyabr, chorshanba №46 (9475)

Xalq ziyolilari gazetasi

Bu yilgi darsliklar o'quvchilar uchun juda qiyin. Odatda darslikdagi topshiriqlarni yangi mavzu tushuntirilganidan so'ng 5-6 nafar ulgurmaydiganlardan tashqari deyarli barcha o'quvchilar mustaqil bajarishardi. Hozirgi matematika darsligi ancha murakkab, shu bilan birga juda ko'p topshiriq berilgan. Topshiriqlarni faqat a'lochilar bajara olishyapti, xolos. O'qituvchilar darslikdan shikoyat qilishsa, og'ziga urishyapti. Nima emish, bu darsliklar Prezident Administratsiya-sining darsliklari emish. Baribir shuni o'qitishga majbur ekanmiz. O'quvchilar bilimsiz bo'lib qolayotgani bilan esa hech kimning ishi yo'q.

Madinaxon NIZOMOVA

Ta'limni yaxshilash, o'qituvchi mavqeyini oshirish, dars o'tish, repetitorlik qilish, o'quvchi va ota-ona o'rni haqida mana, necha yildirki, savol-javob, muhokamalar bo'lib kelmoqda. Hamma kerakli takliflar bitta qilib qog'ozga tushirilganda allaqachon O'ZBEK MILLIY O'QITISH METODIKASI tayyor bo'lgan bo'lardi. Finlar ham, yaponlar ham ortda qolardi.

Ilyosxon QODIROV

O'qituvchining ko'ksiga oftob tegishi juda qiyin ish. 25 yildan beri ta'lim ichidaman. Uyimga katta biror narsa olmoqchi bo'lsam, bir oy o'ylayman. Ungacha u buyum yo "erga tegib ketadi", yo "uylana-di". Haliyam sotuvchilar "mehribon": "Keling, domlo, 3 bo'lishga beraman. Berasizda pulini" deyishadi...

Gazetaga hech bo'lmasa 3-5 kishi bitta obuna bo'lsa ham, eh-he... Respublika bo'yicha "Ma'rifat" ancha nusxada chop etilardi.

Erkinjon YARASHEV

Ta'lim sifatini oshirish uchun maktablarni bir smenalik qilish kerak. O'quvchi soni ham bir sinfda 20-25 nafardan oshmasligi lozim. Ayrim sinflarda 39-40 nafar bola bor, 5-6-sinflarimda orqa partalarda uchtalab o'tirishadi, stul yetmaydi. Qolaversa, sinfxonalar kichkina, bolani partalar oralab yurib kuzatib bo'lmaydigan holatlar bor. Maktabga tekshirgani keluvchi mas'ullar, muammolarni o'rganib, yechimini topishga kelsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Manzura YARASHEVA



AMALIY TILSHUNOSLIK: G'OYA TATBIQI BILAN ULUG'

8-, 9-, 10-betlar

Ulug'bek PO'LATOV

**DARS TAQSIMOTI
BO'YICHA ISHLAB
CHIQUILGAN NIZOM
QAYTA KO'RIB
CHIQUILISHI KERAK**

3-bet

**Norchuchuk
NORMURODOVA**

**TA'LIM SIFATSIZ
DESALAR
QALBIM OG'RIYDI...**

2-bet



O'qituvchi minbari

TA'LIM SIFATSIZ DESALAR QALBIM OG'RIYDI...



Keyingi yillarda maktab ta'limiga chetdan turli o'qitish uslublari olib kirilmoqda. Darsliklar boshqa tillardan tarjima qilinib, amaliyotga joriy qilinmoqda. O'qituvchilar va o'quvchilarning islohotlarga tayyorgarlik darajasi esa hech kimni qiziqitirmaydi. Sifatli ta'lim nima o'zi? Bu o'quvchilarning "4", "5" bahoga o'qishimi yoki bilganlarini hayotda, ish jarayonlarida qo'llay olishi?

Ta'lim sifati oshishi uchun uch narsaga qat'iy amal qilish zarur:

1. O'quv reja ortidan quvmasdan unda ko'zda tutilgan bilimlarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni kuchaytirish shart.

Ta'limda hozirgacha qog'ozlar ustuvor. Agar qog'ozdagi ishlar haqqoniy bo'lganida tizim bugungi kunda islohotga muhtoj bo'lmasdi. Barcha fanlardan rejalar yuz foiz bajariladi, ya'ni darslar to'liq o'tiladi. Ammo natija 50 foizdan oshmaydi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi o'ta pasayib ketgan. O'quv dasturlari esa o'ta murakkab.

Masalan, matematikadan bir o'quv yilida har bir sinfda 170 soat dars o'tiladi. Rejada har bir mavzu uchun ikki yoki uch soat vaqt ajratilgan. O'qituvchi birinchi

soatda mavzuni tushuntirib beradi, misol, masalalar yechib ko'rsatadi. O'quvchilarning 30–40 foizi birinchi tushuntirish-dayoq anglab yetadi. Takroran tushuntirganda yana 20–30 foiziga yetib boradi. Yana tushuntirish uchun o'qituvchida ortiqcha vaqt yo'q. Misol, masalalar yechishni o'quvchilar davom ettiradi. O'qituvchi nazorat qilib boradi. Qo'ng'iroq chalinishi oldidan uy vazifasini beradi. 50–70 foiz o'quvchi o'zlashtirgan bo'lsa, qolgan 30 foizi doskadan ko'chirib oladi, mustaqil yecha olmaydi, chunki ularning matematikaga qobiliyati yo'q. Shunday bo'lsada reja bajarilishi shart, o'quvchilar o'zlashtirishi ikkinchi o'rinda. O'ta qiyin mavzularda o'quvchilarning o'zlashtirishi bundan ham past bo'ladi. Bu tabiiy hol. Qanday yechim topish mumkin?

✓ Hayotda zarur bo'lmaydigan mavzulardan voz kechish kerak.

✓ Darsliklarga murakkab topshiriqlarni kiritishda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini hisobga olish shart.

2. O'quvchilarning iqtidorini aniqlab boshlang'ich sinfdan tabaqalashtirib o'qitish zarur.

Maktab ta'limida, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ota-onalar o'qituvchi tanlaydi. Yaxshi o'qituvchi zo'r bilim berishini ular ham biladi. Iste'dodli o'quvchilarni hamma bilan teng o'qitib, ular imkoniyatlarining qadriga yetmayapmiz. Bog'chadan harf tanib, o'qishni o'rganib kelgan, hisoblashga zukko bolaning eng kamida yarim yil, ko'pi bilan bir yil vaqtini ko'kka sovuryapmiz. Bola uchun bilganlarini qayta o'qish qiziqarli emas, aksincha, zerikarli.

Shu bois o'qituvchi ularning intellektual qobiliyati yanada rivojlanishi uchun alohida muammoli mavzular berishi kerak. Agar har bir o'quv yilida matematikadan chuqurlashtirilgan sinflar tashkil etib, matematik qobiliyatga ega o'quvchilar saralanib olinsa, yetuk iste'dodli o'quvchilarni yetishtiramiz.

3. O'quvchilarni 1-sinfga qabul qilish yoshiga o'zgartirish kiritish zarur.

Yanvar, fevral oyida tug'ilgan bolalar 1-sinfga 7 yosh-u yetti oyligida qabul qilinyapti. Ular 31-dekabrda tug'ilgan sinfdoshlaridan salkam bir yosh katta. Inson miyasining rivojlanishi bola yoshiga bog'liqligi sir emas-ku.

Biz o'qituvchilar o'quvchilarga bilim berishda ularning aqliy qobiliyati va ruhiy holatini hisobga olishimiz shart.

Yana bir tomoni qizlar bilan bog'liq.

Hozir ko'pchilik qizlar to'rtinchi kursga o'tganida turmushga chiqishyapti. Hozirgi holatda o'n, o'n ikki yildan so'ng uchinchi kursdan turmushga uzatilmaydi deb kim kafolat bera oladi. Ham oila, ham ishni eplash oson emas. Pedagogika institutlarida o'qiydiganlarning 80–90 foizi qizlar ekanini inobatga olsak, amaliyotda o'qitishni o'rganish jarayonlarining qanday o'tishi sir emas.

Yana o'qituvchini o'quvchi psixologiyasini bilmaslikda ayblaymiz. Talaba qaydan bilsin amaliyotni amal-taqal qilib yopgan bo'lsa.

Yozganlarim tanganing bir tomoni...

Ikkinchi tomoni haqida yaqin kunlarda bafurja to'xtalamiz.

Norchuchuk NORMURODOVA,
Shahrisabz shahridagi
16-maktab o'qituvchisi

O'qituvchi kundaligidan

MEN NEGA PROKUROR BO'LOLMADIM?



Muallimlik kasbining ma'naviy-axloqiy asoslari bisyor. Sahibqiron Amir Temur ularni ardoqlagan, Navoiy hazratlari esa ularning mehnatini yuz xazinadan ortiq bilgan. Xullas, ushbu kasb o'tmishi o'zining ulkan jussasi bilan faxrlangandek, g'ururlangandek bo'ladi. Men uzoq o'tmish emas, kecha, bugun va erta haqida fikrlamoqchiman.

Oltmishga kirgan, hayotda o'z o'rmini topgan, namunali umr kechirayotgan, davlat-u obro'ga ega odamdan yoshligi, aniqrog'i, maktab davri haqida so'rasangiz, aniq bilaman, shu oq soqoli bilan ham go'yo bolaga aylanib, ilk orzulari, katta bo'lganda kim bo'lmoqchiligi, muallimlarining xarakter-u fazilatlarini haqida to'liqlanib, xursand bo'lib, ba'zida qovoq solib, jahllanib yoki zavqlanib, bolalik xotiralariga g'arq bo'lib ketadi.

2-sinfdaligimdayoq kelajakda prokuror bo'laman, deb orzu qilardim. Sinfdosh bir o'rtog'im ham shu orzuda edi. Bir-birimizga tergovchi bo'lamiz, deb aytar edik. Ammo oilamiz tarixiga va buguniga nazar tashlasak, juda ko'p qarindoshlarim – momom, onam, tog'alarim, ammalarim-u xolalarim, opalarim o'qituvchilik kasbida ishlagan va ish-lamoqdalar.

Oliy ta'limda o'tgan to'rt yilim davomida o'qituvchilik kasbi, o'qituvchilar hayoti va shunga oid pedagogik faoliyat haqida, avval TDPU, so'ng TerDUda ko'plab fikrlarni eshitib keldim. Bitiruvchi kurs bo'lganimda maktabga o'rindoshlik asosida ishga kirdim. Xudoga shukrlar bo'lsinki, auditoriyaga ustoz sifatida kirish, muqaddas mavqeda turib dars berish menga ham nasib etdi.

Birato'la ikkita maktabga ishga kirdim: biri – Angor tumanidagi o'zim tahsil olgan 28-maktab, ikkinchisi – Termiz tumanidagi 34-maktab. Ertalab maktabga, kunning ikkinchi qismida universitetga shoshaman.

Birinchi ish kunim. 28-maktab. Shanba. Mustaqillik bayrami. Onam sinf rahbarlik qilayotgan 10-sinflarga ilk darsimni berishim kerak. Ochig'ini aytganda, hayajon bo'ldi, yigirma sakkiz o'quvchini darsga jalb qilish, albatta, oson emas edi. Ustiga ustak, qishloqda tez-tez ko'rib yurgan og'il-qizlar hammasi. Odatda, birinchi bor darsga kirgan "yangi" o'qituvchini boshqacha kutib olishadi. O'qituvchining kiyimi, ko'rinishi, soch turmagi, yuz qiyofasi, bo'y-basti, gapirish ohangi, adabiy tilda gapira olishi va boshqa-boshqa hamma jihatlarini nazardan qochirishmaydi.

Men bu maktabda faqat 10-sinfga tarix, huquq, ma'naviyat asoslari va din tarixi fanlaridan mashg'ulotlar olib bora boshladim (Nahot shuncha fanlardan dars bera oladigan darajada mutaxassis bo'lsam-a!?) O'rindosh bo'lib ishlaganim juda yengillik bo'ldi. Maktab ma'muriyati allambalo hujjat-pujjatlarni talab qilmadi. Faqatgina ish rejam va dars ishlanmam bo'lsa bo'lgani. Endi oldimda katta savol turardi: nima qilish kerak?

Haqiqatan ham, men qanday qilib o'quvchilarga yaxshi dars berishim kerak? An'anaviymi yoki pedagogik texnologiyalar asosidami? Yoki ikkovini uyg'unlashtirgan holdami, balki bolaligimda bizga dars bergan ayrim "ishning ko'zini biladigan" ustozlarning metodi bilanmi? Bu qanday metod ekan deb boshingizni qotirib yotmang: darsga qo'ng'iroq bo'lgach sinfxonaga kiraman, salomlashaman, yo'qlama-borlama qilaman, mavzuni doskaga yozdirib, o'tgan darsda kelmagan o'quvchilarni muhokama qilaman. Eshov va Toshov kabi o'quvchilarning sochi o'sgan, ularga rosa deguncha ma'ruza qilib bo'lgach, siz ham biladigan sinfda ikki-uchta gaplashib-kulishib o'tiradigan zumrashalar bor – ularning aka-opasi, ota-onasi qanday o'quvchi bo'lganini aytib, hammaning oldida uyaltiraman, kamsitaman, ulardan yaxshi odam chiqmasligini hukm qilib, dars oxirlashib (o'lib) qolganda ideal shaxs – o'zimning o'tgan kunlarim, maktabdagi eng bilimli o'quvchi bo'lganligim, universitetda qilmagan amallarimni to'qib, shaxsiy obro'-e'tiborimni misol keltirib, "1918–1939-yillardagi xalqaro munosabatlar" mavzusini yakunlayman. Ana sizga sinalgan metod. Ana sizga yillarni, umrlarni yutib yuborgan ta'lim-tarbiya usuli. Ana sizga pedagog-muallim-ustoz. Xudoning o'zi asrasin bolajonlarimizni unday "ustozlar"dan.

Qanday dars o'tishni ko'p o'yladim. Aytishlaricha, har bir inson bolasi Xudo bergan o'ziga xos fazilat, qobiliyat bilan tug'ilar ekan. Mana shu fikr menga qandaydir yo'l ko'rsata boshladi. Deyl Karnegining bir kitobini o'qiganim-

da odamlarning nimaga qiziqishlarini, ular nimani xohlashlarini bilish kerak, degan fikri bor edi. O'zim ishlayotgan ikkita maktabda ham bir xil yo'l tuta boshladim. Termiz tumanidagi 34-maktabda 7-8-9-10-sinflarga dars beraman. Birinchi darslarimni o'quvchilarning nimalarga qiziqishlari, kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchiligi, nima uchun aynan shu kasbni tanlaganligi va bu kasbning mas'uliyati haqidagi orzu-o'ylariga bag'ishladim. Dars beradigan sinflarimga shunday dedim: "Sizlarga bir hafta vaqt beraman. Shu muddat ichida kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishingni o'ylab kelasizlar, kelishdikmi?", "Xo'p bo'ladi, ustoz!"

Maktab davrimni eslasam, menda ham orzu bo'lgan, albatta, kimlargadir havas qilib, men ham shunday odam bo'laman, deganman. Ammo orzu boshqa ekan, orzu yo'lidagi harakat boshqa ekan. Menimcha, o'sha vaqtlarda faqat "katta bo'lsam" degan xayollarda yurganman. Go'yoki katta bo'lsang bo'lgani, tappa-tayyor kasbing o'zining issiq o'rindig'i bilan senga quchog'ini ochadi, ertaklarda aytilganidek, katta bo'lsang murod-maqsaadingga yetasan...

Bundan ko'rinadiki, men 2-sinfdan to 9-sinfni bitirguncha katta bo'lishni kutib yashaganman. Bu bilan juda katta xatoga yo'l qo'rganman. Ikkinchi sinfligimdayoq huquqshunoslikka qiziqqanman. Ammo bu kasning mohiyati haqida tushuncha bo'lmagan yoki ustozlardan ta'limiy turtki bo'lmagan. Inson, uning qadri, huquqi; qonun, konstitutsiya va shu kabi tushunchalar ustida tizimli ishlama-ganman. Chunki katta bo'lsam, bularning hammasini bilib oladigandek xayol bo'lgan. 6-7 yillab faqat katta bo'lishni kutish...

Agar bola orzu qilgan hunarini egallash uchun bugundan harakat qilmasa, u kelajakda tabiiy ravishda (haqqoniy) bu orzusiga yeta olmaydi. Kulgili bo'lsa ham aytaman: mundoq o'ylab qarasam, men ikkinchi sinfdaligimdayoq prokuror bo'lib bo'lgan, 9-sinfigimda esa nafaqaga chiqqan ekanman. Mana nega men prokuror bo'lolmadim...

Albatta, har bir davrning o'z sharoiti, sharti, talab-u tabiati bo'ladi. Shukrki, mustaqilligimizni qo'lga kiritgach iqtisodiyotimizni ham, ma'naviyatimizni ham rivojlantira boshladik. Ammo bu oson bo'lmaydi. Bozor qonuniyatining ham o'ziga xos yuki bo'ladi.

Fazliddin ABDURAIMOV,
Termiz shahridagi Prezident maktabi
o'qituvchisi

So'rang, javob beramiz

MENEJERLIK SERTIFIKATINI QANDAY OLSAM BO'LADI?

Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni va 2022-yil 21-iyundagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, maktab direktori lavozimiga nomzodlar menejerlik sertifikatini olish uchun A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida sinov tariqasida(bir marta) o'qitildi. Jarayonning davomi bilan qiziqib, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda menejerlik sertifikati uchun galdagi o'quv mashg'ulotlari haqida siz ta'lim fidoyilarini qiziqtirgan savollarga javob oldik.

1. Maktab direktori lavozimiga nomzodlar menejerlik sertifikatini olish uchun navbatdagi o'quv jarayonlari qachondan boshlanadi?

– A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida 2024-yil 1-yanvardan boshlab maktab direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o'qitish jarayoni boshlanishi rejalashtirilmoqda. Institutda rasman kurslar boshlanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori loyihasining tasdiqlanishiga bog'liq.

2. O'qish istagida bo'lganlar dastlab qayerga murojaat qilishi kerak?

– Qaror loyihasi tasdiqlangandan so'ng o'qish istagida bo'lganlar kursga uydin tashqariga chiqmasdan ham hujjat topshirsa bo'ladi. Buning uchun institutda ishlab chiqilayotgan maxsus elektron portal orqali ro'yxatdan o'tadi va elektron ariza qoldiradi. Ayni vaqtda esa institut tomonidan elektron portal ishlab chiqish loyihasi amalga oshirilmoqda.

3. Ushbu kursda qatnashish uchun kadrqa yosh, lavozim yoki boshqa cheklavlar qo'yilganmi?

– Jarayonga qo'yilgan talablar maktab direktori lavozimiga qo'yilgan talablar bilan bir xil. Ma'lumki, maktab direktori lavozimiga nomzodlar uchun yosh chegarasi belgilanmagan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 29-avgustdagi 270-buyrug'iga asosan maktab direktori lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- maktab direktori lavozimiga davlat fuqarolik xizmati lavozimini egalash huquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va malaka talablariga javob beradigan fuqarolar nomzod bo'lishi mumkin;
- kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot;
- (Endilikda) menejerlik sertifikati;
- ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj;
- xorijiy tillarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilish (tanlov jarayonida ustuvorlik beradi).

4. Jarayonda belgilangan o'qish muddati qancha?

– Maktab direktori lavozimiga nomzodlar uchun o'qish muddati – 1 oy (144 soat hajmda).

5. O'qish mobaynida aynan nimalar o'rgatiladi?

– Maktab direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o'qitish uchun Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Finlandiya tajribasi o'rganilgan va o'rganilmoqda.

7. O'qish uchun ayni vaqtda qaysi viloyat(shahar)larimizda imkon bor? Nечtagacha bo'lib o'qitish rejalashtirilgan?

– Qaror tasdiqlangandan so'ng nomzodlar A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida o'qishi mumkin.

Nizom loyihasiga asosan menejerlik o'quv kurslari 20–30 nafar nomzodlardan iborat akademik guruhlarda tashkil etiladi.

8. O'quv mashg'ulotlari qaysi tillarda olib boriladi?

– Kurslardagi dars mashg'ulotlari o'zbek tilida olib boriladi. Agar guruh faqat rus yoki qoraqalpoq tilida so'zlashuvchi nomzodlardan shakllantirilgan bo'lsa, dars mashg'ulotlari tegishli tilda olib borilishi mumkin.

9. O'qish vaqtida ham xodimga ish joyidan maosh beriladimi yoki shu oy ish emas, o'qishdagi sababli maoshi kesiladimi?

– Nomzodlarning ixtiyoriy tanlovi asosida menejerlik o'quv kurslari ishlab

chiqarishdan ajralgan yoki ajralmagan (masofaviy, onlayn) holda tashkil etilishi mumkin.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda menejerlik o'quv kurslariga jalb etilgan nomzodlarning o'rtacha ish haqi saqlanadi, ularning o'quv yuklamasi yoki ish vazifalari esa boshqa xodimlar o'rtasida taqsimlanadi.

10. Sertifikatsiya uchun olinadigan test sinovidagi savollar ustida kimlar ishlayapti?

– Yakuniy sinov topshiriqlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan dasturlar asosida Milliy-tadqiqot instituti tomonidan shartnomaviy munosabatlar asosida yetakchi olimlar va malakali mutaxassislar, shuningdek, nodavlat tashkilotlar vakillarini jalb qilgan holda ishlab chiqiladi.

Yakuniy sinov topshiriqlari Milliy-tadqiqot instituti tomonidan ekspertizadan o'tkaziladi.

11. Dastlabki o'tkazilgan test sinovida nimalarga alohida e'tibor qaratildi?

– Test savollarining mazmuni bevosita maktab amaliyotidan kelib chiqib tuzildi.

12. O'rgatilayotgan metod, mavzular bir xilligi sababli test sinovlari mohiyati ham bir xil bo'ladimi yoki bu xususida yana yangi rejalar bormi?

– Kurs uchun o'quv dasturlari maktab direktorining kasb standarti asosida ishlab chiqiladi va shu asosida dars mashg'ulotlari olib boriladi. Yakuniy sinovlar ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich – berilgan nazariy va amaliy bilimlardan kelib chiqib test (keys, kazusli), ikkinchi bosqich – amaliy topshiriqlar taqdimoti (Maktabni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilishi) shaklida amalga oshiriladi.

13. O'qish jarayoni pullimi yoki bepul?

– Nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish hamda baholash ular bilan Milliy-tadqiqot instituti o'rtasida tuzilgan xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

14. Testdan o'tish uchun ma'lum ball yoki foiz belgilanganmi?

– Yakuniy sinovlarda 70 foiz va undan yuqori natija ko'rsatgan nomzodlar sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi va ularga belgilangan tartibda menejerlik sertifikati beriladi.

15. Sertifikatning amal qilish muddati necha yil?

– Menejerlik sertifikati 5 yil davomida amal qiladi. Nomzodlar menejerlik sertifikatining amal qilish muddati davomida mazkur muddatni uzaytirish maqsadida menejerlik sertifikatini yangilash bo'yicha yakuniy sinovlarda ishtirok etishlari mumkin.

16. Testdan o'ta olmagan xodim navbatdagi o'quv jarayonida qatnashib yana qayta urinib ko'rsa bo'ladimi?

– Belgilangan balni to'play olmagan nomzodlar bir yil ichida bir marta navbatdagi yakuniy sinovda ishtirok etish huquqiga ega.

Ikki marta ham yakuniy sinovlarda belgilangan balni to'play olmagan nomzodlar menejerlik o'quv kursida yana qayta o'qiganidan so'ng yakuniy sinovlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Taklif

Dars taqsimoti bo'yicha ishlab chiqilgan nizom qayta ko'rib chiqilishi kerak

Maktablarda adolatli dars taqsimoti masalasi kun tartibiga ko'tarilgach, 2020-yili "Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom ishlab chiqilib, 3271-son bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi.

Albatta, ushbu nizom juda ko'p muammoli masalalarga yechim bera oldi. Lekin hozirgi kunga kelib, nizomni qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj mavjud. Chunki undagi ayrim mavhum masalalar ko'pchilikni o'ylantirib qo'yadi.

Birinchi tushunarsiz holat diplomi tan olinmagan pedagoglarga dars berish masalasidir. Ma'lumki, nizomning 15-bandida pedagog xodimlarga darslarni ustuvor ketma-ketlikda taqsimlash masalasi haqida gap ketgan.

15-bandning 17-xatboshisida esa pedagogik yo'nalish bo'yicha xorijiy davlatlar OTMLarini bitirgan, biroq diplomi tan olinmagan o'qituvchilarga ham dars berish mumkinligi aytiladi.

Ammo diplomi tan olinmagan fuqarolarga ish berish Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi 620-qarori talablariga zid hisoblanadi. Mantiqan olib qaraganda ham qanday qilib diplomi tan olinmagan fuqaroga dars berish mumkin? Bu g'alati emasmi?

Ikkinchi tushunarsiz holat, pedagog xodimlar maksimal miqdorda dars olish uchun asos bo'ladigan ko'rsatkichlarning amal qilish muddati belgilab berilmaganidir.

Masalan, bir o'qituvchi qachonlardir "Yil o'qituvchisi" tanlovida o'rin olgan yoki ancha yillar avval uning o'quvchisi olimpiadada g'olib bo'lgan bo'lsa yoki qandaydir ko'rik-tanlovlarning respublika bosqichida ancha yillar avval g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, u o'qituvchiga umrbod maksimal dars berilishi kerakmi?

Uchinchi tushunarsiz holat shuki, ba'zan ustuvor ko'rsatkichlarga ega bo'lgan barcha o'qituvchilarga maksimal dars soatlari ajratilsa, ayrim o'qituvchilarga dars soati yetmay qolishi yoki atigi bir soat dars ajratilish holati ham kuzatiladi. Bu esa mehnat qonunchiligiga zid bo'lib qoladi.

Shuningdek, ko'plab malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilar xalqaro sertifikatlar o'qituvchining malaka toifasidan ustun ko'rsatkich sifatida qayd etilganiga ham e'tiroz bildirishgan.

Xullas, "Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom qayta ko'rib chiqilishi kerak deb o'ylaymiz.

Ulug'bek PO'LATOV

"Ma'rifat" muxbiri
Shahnoza YANGIBOYEVA
tayyorladi.

Bugunning gapi

TURTKI

Ta'lim tizimidagi muammolar haqida "Ma'rifat" gazetasiga tez-tez maqolalar berib, o'zimcha shu yo'l bilan jamiyat e'tiborini ana shu muammolarga qaratishga harakat qilardim. Ammo bosma nashrlar – gazeta va jurnallarga nisbatan jamiyatda shakllangan salbiy va befarq munosabat hafsalamni pir qilib, asta-sekin yozishdan bezishimga va yuz berayotgan jarayonlarga loqaydlik va befarqlik bilan qarashimga olib keldi. Direktorimizga hokimiyat idoralari majburiy obuna jarayonini boshlashdan oldinroq, barcha o'qituvchilar "Ma'rifat" va boshqa ta'lim nashrlariga obuna bo'lsak deb taklif bergandim:

– Yo'q, shart emas, majburiy obuna baribir bo'ladi. Tuman gazetasiga, viloyat gazetasiga, ayrim soha gazetalriga baribir majburiy obuna qildirishadi. O'qituvchilarni ikki qaytalab obuna qildirmaylik. Odatdagidek reja bo'yicha o'tkazamiz obunani, – dedi.

Shu o'rinda maktabimizda obuna jarayoni qanday o'tkazilishi haqida ma'lumot berib o'tsam. Direktorimiz odatda "Yangi O'zbekiston" gazetasiga, o'rinbosarlar esa "Vatanparvar", "Ishonch", "Xalq so'zi" kabi nashrlarga, men "Ma'rifat"ga, boshqa o'qituvchilar esa viloyat va tuman nashrlariga, ayrim ta'lim nashrlariga obuna bo'lishadi. Majburiy obuna ham bajariladi, o'qituvchilar deyarli barcha nashrlar bilan tanishish imkoniga ham ega bo'ladi. Baribir umidimni so'ndirmay, taklifimni davom ettiram:

– O'qituvchilarning barchasi obuna bo'lgan, boshqa obuna bo'lish imkonini yo'q desangiz bo'lmaydimi?

– Bu gapni siz ayta olasiz. Men hokimga yoki mudirga bu gapni ayta olmayman.

Demak, maktabdan umid yo'q, bu yil ham faqat o'zim obuna bo'lamman. Ko'pgina o'qituvchilarimizning "Ma'rifat" gazetasiga obuna bo'lish niyati bor edi. Ammo afsuski... Baribir umidimni uzgim kelmadi. Balki tumanimizdan loqal maktab direktorlarini, tuman MMTB mudiri va xodimlarini obunaga targ'ib qila olarman degan fikr paydo bo'ldi. Chunki bir necha yildan buyon ikki yuz mingdan oshiq kishi yashaydigan tumanda "Ma'rifat" gazetasiga faqat men obuna bo'lamman. Na birorta ta'lim tizimi rahbari, na hokimiyat idoralaridan biror kishi, na birorta o'qituvchi asosiy ta'lim nashri bo'lgan "Ma'rifat"ga obuna bo'ladi. Butun boshli tumanga bir dona "Ma'rifat" keladi. Shu ahvolni mudirga yotig'i bilan tushuntirsam, loqal maktab direktorlarini obunaga undar degan fikr tinchlik bermay qo'ydi. Seshanba kuni ikki soat darsim bor. Bo'sh vaqtdan foydalanib, rahbarlardan ruxsat olib, tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga bordim. Men borgan payt mudir xonasidan chiqayotgan ekan. Nima maqsadda kelganimni aytib, ikki-uch daqiqa vaqt ajratishini so'radim.

– Hozir viloyatdan mehmon bor. O'n kunlardan so'ng kelsangiz bo'ladimi?

– Buning imkonini yo'qda, mening faqat seshanba kuni bo'sh vaqtim bor.

– Bo'lmasa, kelgusi seshanba kuni kelsangiz bo'ladimi?

– Mayli, unda keyingi seshanba kuni kelaman.

Har holda, yo'q demadi-ku deb, xursand bo'lib, mudir bilan izma-iz hovliga chiqdim. MMTBga direktor tomonidan topshiriq bilan yuborilgan texnik xodimlarimizdan birining mashinasida kelgandim. Uning ishi bitishini kutib turishga qaror qildim. Tayyor mashina... Hovlida qo'shni maktabdan o'qituvchilar bor ekan, ko'rishib-so'rashdik. Ular ham biroz ishi borligini, ozroq kutib tursam, birga ketishimizni aytishdi. Biroz uyoq-buyoqdan gaplashib turdik. Mening nimaga kelganimni bilshgach, ulardan biri qo'li bilan mudir turgan tarafa ishora qilib, kuldi:

– Mehmonim bor dedimi?

– Ha. Bir haftadan so'ng keling dedi.

– Bularning qaysi biri mehmon?

Mudir turgan tarafa o'girilib qaradim. Rostan ham uning oldida ikki-uch nafar bo'lim xodimlari bor edi, ular o'zaro suhbatlashib turishardi. Va anchagina suhbatlashib turishdi. Bu yerdan ham hafsalam pir bo'lib, tarvuzim qo'ltig'imdan tushib qaytdim. O'zimcha "bo'ldi, endi yozmayman" degan qarorga kela boshladim. Yaqinlarim, hamkasblar va rahbarlar esa allaqachondan buyon bu maslahatni berib, kezi kelganda rahbarlar hatto talab qilishardi. Mazkur holatdan so'ng besh-olti varag'i yozilgan, deyarli tugallanib qolgan uslubiy maqolani telefonim xotirasidan o'chirib tashladim... Har holda bir muddat o'zimga tanaffus berdim. Anchagina dam oldim. Ammo baribir yozishga majbur bo'ldim... Zarafshonlik ijodkor o'qituvchi Erkinjon Yarashevning Feysbuk ijtimoiy tarmog'ida obuna haqidagi fikriga tarmoq foydalanuvchilaridan biri tomonidan juda qo'pol, g'aliz va savodsizlarcha bildirilgan fikr, qalamimni bandi qilib qo'yganim, zanjirlarni uzib, qulflarni sindirdi. Garchand fikriga yaxshigina munosabat bildirgan bo'lsamda, uning fikridagi qo'pollik va dag'allikni hazm qila olmadim. Bir haftacha munosabatinga javob yozishini kutdim. Fikr almashish bahonasida yurakda to'planib qolgan, ta'lim tizimiga va obunaga oid barcha qarashlarimni aytib olmoqchi edim. Afsuski, bildigan munosabatim, o'zimcha keskin va dag'al fikrlarni kutgan bo'lsamda, javobsiz qoldi. Bu esa yana yozishimga turtki bo'ldi.

YAHUDIYLAR
YOXUD MOZIYGA BIR
NAZAR...

So'zimning avvalida mushtariylarga moziy so'zi haqida izoh berib o'tsam. Moziy deganda ko'pchilik olis tarixni ko'z oldiga keltiradi. Ammo men tasvirlamoqchi bo'lgan moziy bundan atigi 33 yil oldingi voqealar. To'g'ri, o'ttiz uch yil ham oz muddat emas, ammo harholda olis moziy ham emas. Endi yahudiylarning obunaga qanday aloqasi borligi haqida ham to'xtalib o'tsam. Ma'lumki, yahudiy xalqi va-killari dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan xalqlardan biridir. Fikrimning isboti sifatida so'nggi ikki yuz yilda insoniyat tomonidan yaratilgan ixtirolar va kashfiyotlarning qanchasi, yoxud

“MA'RIFAT”SIZ
YOXUD BOSMA NASHRLAR ROSTAN

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2023-yil 15-oktabr, chorshanba

Xalq ziyolilari ga

O'ZBEK TILIDAGI BIR TOVUSH HODISA

VA UNING ALFBOBDAGI IPDASI HAQIDA

Agarda kimningdir uyda o'yinchoq bo'lgan bo'lsa, rahbar o'yinchoq bo'lgan bo'lsa, rahbar o'yinchoq bo'lgan bo'lsa...

Marifat

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2023-yil 17-mart, chorshanba № 11 (9335)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'zbekistonda birinchi marta: Tez o'qish san'ati

o'quvchilarda qanday shakllantiriladi?

O'qituvchi nimani o'qiydi?

Ushbu maqolada o'qituvchilarning o'qish uslubini o'zgartirish haqida gaplashiladi. O'qituvchilarning o'qish uslubini o'zgartirish haqida gaplashiladi...

Ushbu maqolada o'qituvchilarning o'qish uslubini o'zgartirish haqida gaplashiladi. O'qituvchilarning o'qish uslubini o'zgartirish haqida gaplashiladi...

Ushbu maqolada o'qituvchilarning o'qish uslubini o'zgartirish haqida gaplashiladi. O'qituvchilarning o'qish uslubini o'zgartirish haqida gaplashiladi...

eng nufuzli ilmiy mukofot hisoblangan Nobel mukofoti sovrindorlarining qanchasi yahudiy millatiga mansub ekanligini eslash kifoya qilsa kerak. Buning sababini esa men bundan o'ttiz uch yil oldin bilgandim. Hozirgi hikoyam shu haqida.

Bundan o'ttiz uch yil oldin, 1990-yilning iyulida Toshkent shahridagi "kattalar" uchun mo'ljallangan maxsus klinikada davolangan edim. To'rt kishilik palatada ikki "katta" odam va ikki oddiy odam, qariyb bir oy davomida birga davolagandik. Palatadagilardan men va marhum akademik Shavkat aka Akmalxonov o'zbek, Anatoliy Semyonovich Podlipnov nomli rus professor, kekxa yahudiy, familiyasi Krill edi, shekilli. Chunki hamshiralar shu nom bilan chaqirishardi, har holda kekxa odamning ismini aytib chaqirishmagan bo'lsa kerak. O'g'li Toshkent aeroportida dispatcher bo'lib ishlardi. O'g'lining familiyasi aniq Krill edi. Samolyotga bilek olishda yordam kerak bo'lsa telefon qilasan, deya ish telefonining raqami yozilgan tashrif qog'ozini bergan edi. Unda familiyasi Krill deb yozilgandi. Ijtimoiy holatimiz turlicha edi. Shavkat aka ham akademik, ham amaldor, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida mas'ul lavozimda ishlardi. Anatoliy Semyonovich ham ilmiy-tadqiqot, aniqrog'i loyihalash institutida ishlasada, har kuni kazo-kazolar turli iltimoslar bilan kelib turishardi. Yahudiy otaxon esa nafaqada edi. Bir umr avtobus haydab, nafaqaga chiqqan ekan. Men esa talaba edim. Kasalxonada vaqtning o'tishi qiyin. Muolaja uzog'i bir soat vaqtni oladi. Qolgan vaqtni o'tkazish uchun esa yoki suhbatlashardik yoki gazeta-jurnal, kitob o'qirdik. Shavkat aka juda madaniyatli, dilkash inson edi. Ammo katta lavozimda ishlaydigan, akademik unvoniga ega inson bo'lgani uchun masofa saqlashga harakat qilardim. Anatoliy Semyonovich bilan esa ikki-uch kundayoq akadek bo'lib ketdik. Hatto Shavkat aka ba'zan hazil qilib:

– Kasal bahona ikki aka-uka topishdilaring. Rostakam aka-ukadan ham qalin bo'lib ketdilaring-ey. Kasalxonadan chiqqach bir-birlaringni rosa sog'in nasizlar hali, – deya kulardi.

– Shavkat aka, uch xonali kvartirada er-xotin yashaymiz. Ikki xona bo'm-bo'sh turadi. Yotoqxona, kvartira deb yurmay, biznikida turadi.

– O'qishni bitirgandan so'ng-chi? – kuladi Shavkat aka.

– Bizning institutga referent bo'lib ishga kiradi, – bo'sh kelmaydi Anatoliy Semyonovich. – Ministrlar Sovetidan ish taklif qilsam-chi?

– Toshkentda ishlasa bo'ldi-da, har zamonda ko'rishib, bahslashib turamiz...

Mana shunaqa hazil-huzillar bilan vaqtni o'tkazamiz. Shavkat aka bilan Anatoliy Semyonovich oldindan tanish. Men ham qisqa fursatda ming yillik qadrdonday bo'lib ketdim. Ammo yahudiy otaxon suhbatga aralashmaydi. Suhbatimiz rus tilida bo'lsa, jimgina yotib eshitadi, har holda bizni tinglayotganini sezaman, boshqa paytlari jimgina gazeta-jurnal o'qiydi, sababi o'zbek tilini deyarli bilmaydi. Gurungimizga aralashmaydi. Shavkat aka ham, Anatoliy Semyonovich ham yahudiy otaxonni uncha xushlamaydi. U ham buni sezadi. Ikkalasi xonada yo'q payti men-ga hazil qiladi:

– Sen ham bu ketishda amaldor bo'lasan.

– Nega unaqa deyapsiz?

– Amaldorlikni o'rganmayapsanmi, bulardan?

– Yo'g'ey, amaldor bo'lishni yoqtirmayman.

– Ha, yahudiy emassanda. Sening o'ringda yahudiy bola bo'lganda, rusning uyiga, o'zbekning ishiga joylashib olardi.

Asta-sekin yahudiy otaxon bilan ham chiqishib ketdim. Ko'proq gazeta-jurnal, kitob alishamiz. Har kuni kechqurun o'g'li xotini va ikki o'g'lini olib, otasidan xabar olishga keladi. Eng muhimi, 10–15 ta, ba'zi kunlari esa 20 ta

TA'LIM-3

HAM TA'LIM UCHUN KERAKSIZMI?

cha gazeta-jurnal olib kelishadi. Oldingi kuni olib kelganlarini esa olib ketishadi. Men esa ularning deyarli barchasini o'qib chiqaman. Chunki ba'zilarini Shavkat akaga, ba'zilarini esa Anatoliy Semyonovichga kelganlaridan o'qiyman. Ikkalasining ham xotini har kuni gazeta-jurnal olib kelishadi. Ammo yahudiy otaxonga keladigan gazeta-jurnallardan kamroq. Shavkat akaga ikki dona – “Известия” va “Правда Востока” gazetalarini, Anatoliy Semyonovichga esa “Труд”, “Комсомольская правда” va “Советский спорт” gazetalarini keldi. Kasalxona hovlisida gazeta do'konini bor. Men ham har kuni anchagina gazeta-jurnal olib chiqaman. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshida ko'plab yangidan yangi gazeta-jurnallar nashr etilgan, oldingilari ham mazmunan yangilangan davrlar edi. Noyob kitoblar savdoda paydo bo'la boshlagandi. Bir kuni do'konchadan birdaniga uchta noyob kitob – “Bibliya”, Freyd va Nitshening bittadan kitobini oldim. Kitoblarni tumbochkaga qo'yayotgan edim, yahudiy otaxon hazillashdi:

– Sen ko'p o'qir ekansan. Rostan o'zbekmisan?

– Ha, o'zbekman.

– Ko'p o'qiydigan o'zbekni birinchi marta ko'rishim.

Suhbatimizni eshitib turgan Shavkat akaning rangi oqarinqiraganini sezdim. Birozdan so'ng tashqariga chiqar ekan, meni ham imlab chaqirdi. Foyening chetrog'idagi divanga borib o'tirdik.

– Yahudiyni gapidan xafa bo'l-madingizmi?

– Yo'g'ee, to'g'ri gapni aytdi-ku...

– Ha, achchiq haqiqatni aytdi. Yuragimga toshdek botdi. Xulosa qilsangiz, uka, bu achchiq haqiqat. Yuzaki qabul qilsangiz – haqorat.

Bir muddat jimlik cho'kdi. Doim xushchaqchaq yuradigan, yuzidan tabassum arimaydigan Shavkat aka juda xomush bo'lib qolgan edi. Birozdan so'ng o'g'ir xo'rsinib, sekin gap boshladi:

– Bu yahudiy chol ko'zimni ochdi. Lavozimga qiziqmay ilm bilan shug'ullanishim kerak ekan. Uka, rostan ham palatadagi uch inson, uch Xalqning oynadagi aksimiz. O'zbekning akademigi ikkita gazeta o'qiydi. Rus professor beshta gazeta o'qiydi, nafaqadagi yahudiy yigirmata gazeta o'qiydi. Harakatga yarasha... deb bekorga aytishmagan ekan... Xalq yuksalishi uchun, xalqning barcha vakili, yosh-u qari barchasi ko'p, juda ko'p o'qishi kerak, uka. Ko'p o'qish kerak... Yahudiylar ko'p o'qigani uchun ham barcha sohalarida zo'r.

Kechga borib, Shavkat akaning mazasi qochib, alohida palataga o'tkazildi. Bu orada menga javob berishdi. Shavkat aka bilan xayrlashmay, uyga qaytdim. Toshkentga borsam, albatta, uyiga bir borib xabarlashishni ko'nglimga tugib qo'ydim. Ammo Toshkentga borishimdan avvalroq gazetada,

Ministrlar Sovetida yig'ilish o'tkazganligi haqidagi xabarni o'qib ko'nglim tinchidi. Shavkat aka bilan ham, Anatoliy Semyonovich bilan ham boshqa uchrashmadim. Ammo Shavkat akaning oxirgi gaplari, bu gaplarni gapirayotgandagi holati xotiramda bir umrga muhrlanib qoldi...

BOSMA NASHRLAR KERAKSIZMI?

Hozirgi davrda bosma nashrlar va ularning obunasiga qarshilarning ayrim vajlarini keltirib o'tsam:

- ◆ Bosma nashrlar eskilik sarqiti;
- ◆ Internet nashrlari bemalol bosma nashrlar o'rnini bosadi;
- ◆ Gazetalar endi axborot manbayi emas, ular internetga nisbatan juda sekin, juda kech axborot beradi;
- ◆ Ta'lim nashrlari keraksiz;
- ◆ Majburiy obuna, ayniqsa o'qituvchilar uchun og'ir yuk.

Endi yuqoridagi vajlarni tahlil qilib chiqsak. Bosma nashrlar eskilik sarqiti deb, o'zlarini zamonaviy dunyo vakillari, bosma nashrlar tarafdorlarini esa qoloqlik timsoli deb biladiganlar, o'z qarashlarini g'arb mamlakatlaridagi holat bilan vajlantirmoqchi bo'lishadi. Lekin Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarni qo'ya turaylik, g'arbning eng klassik mamlakatlari bo'lgan AQSHda “Washington post”, “Nyu York tayms”, Angliyada “The Guardian” kabi gazetalarining qanday nufuzga egaligi, qancha nusxada nashr etilishini bilishmasa kerak. Agar bilishganda, bosma nashrlar eskilik sarqiti deb jar solishmas edi. Agar bosma nashrlar eskilik sarqiti bo'lganda g'arb davlatlari allaqachon bosma nashrlardan voz kechgan bo'lardi.

Internet nashrlari bosma nashrlar o'rnini bosadi degan fikrni tahlil qilsak. Avvalo, o'z fikrimni aytсам. Internet nashrlari hech qachon bosma nashrlar o'rnini bosa olmaydi. Axborot va bilim manbayi sifatida gazetalar internet nashrlardan juda-juda ustun. Boshimdan o'tgan oddiy bir voqeani eslab o'tsam. Men gazeta-jurnallardan ham, internet nashrlaridan ham bir tekis, o'z o'rnida va joyida foydalanaman. Ammo ikkalasi ikki dunyo. Ikki-uch yil oldin Feysbuk yoki telegramda qiziq va o'ta muhim bir ma'lumotga duch keldim. Uni saqlashga erinib, keyinroq yuklayman deb, boshqa xabarlarini ko'ra boshladim. Ammo xabarlarini ko'rib chiqqach esa mazkur postni qayta topa olmadim. Xotiradan shikoyatim yo'q. Bir o'qigan narsam yod bo'lib, bir necha yil xotiramda saqlanib qoldirdi. Internet titkilash sababmi, yoki keksalik ta'sirini o'tkaza boshladimi, so'nggi besh-olti yildan buyon xotiramda biroz pasayish sezilmoqda. Har holda mazkur postni topa olmadim va to'liq eslay olmadim. Agar mazkur ma'lumot gazetada bo'lganda, uni bir lahzada topib o'qirdim. Mana, internet nashrlarining ahvoli. Gazetalar endi axborot manbayi emas degan fikrga esa qo'shi-

lish mumkin. Ha, zamonning tezkorligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi gazetalarining axborot manbayi sifatidagi rolini deyarli yo'qqa chiqardi. Ammo gazetalar endi axborot manbayi sifatida emas, balki tahliliy xulosalar, bilim va ta'lim manbayi sifatida faoliyat yuritishga moslashishi kerak. Ammo shu o'rinda uzuq-yuluq, palapartish axborotlar, madhiyabozlikka asoslangan quruq, jozibasiz maqolalardan iborat nashrlar ham, afsuski, yo'q emas va achinarlisi, majburiy obuna asosan ana shu nashrlar manfaatlariga xizmat qilayotganligi ham sir emas. Ta'lim nashrlari keraksiz deydiganlar yoki ta'limni tushunishmaydi, yoki ta'lim rivojiga dushman, yoxud shunchaki populist, piar qilib obro' topishga intiluvchilar. Chunki ta'lim nashrlari deyarli befoyda va abgor holdagi malaka oshirish tizimi o'rnini bosuvchi, o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishi uchun, ta'limdagi yangiliklar bilan xabardor bo'lish imkonini beruvchi bir vositadir. Majburiy obuna haqida dod-voy qiladiganlar ko'pincha o'qituvchilarning maoshi kamligini bahona qilib, o'qituvchilarga, ularning ozgina maoshiga ko'z olaytirmaslikni talab qilishadi. Sirtidan qaraganda bu haqiqat. Ammo tanganing ikki tomoni bo'lganidek, mashaqqatning rohati, yomon narsaning yaxshi tarafi ham bo'ladi. Obunaning yomon tomoni – o'qituvchi hamyonidan chiqadigan pul. Obuna bo'lishni xohlamaydigan o'qituvchilar uchun ham, ularning tarafdorlari uchun ham asosiy masala mana shu pul masalasi, ya'ni mablag' masalasi. Mayli, bu tarozining ikkinchi tarafida ham nimalardir bordir... Obuna deganlari faqatgina o'qituvchi pulini o'marish, shilish uchungina o'tkazilmas. Endi tarozining ikkala pallasiga ham bir-bir nazar tashlasak.

O'QITUVCHI OBUNA BO'LISHI KERAKI(MAS)MI?

Agar tarozining ikkinchi pallasiga yaxshilab nazar tashlasak, masalani yuqoridagi shaklda qo'yishga umuman hojat qolmaydi. Sababi, tarozining ikkinchi pallasida obuna uchun ketadigan pulga nisbatan ko'proq foydali jihatlar, ta'bir joiz bo'lsa ko'proq pul bor:

- ◆ O'qituvchining bilim darajasi va malakasi oshadi;
- ◆ Ta'limdagi yangiliklardan o'z vaqtida xabardor bo'lib boradi;
- ◆ O'z shaxsiy “podshivkasi”ga ega bo'ladi;
- ◆ Raqobatbardosh kadr ga aylanadi.

Endi yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib chiqsak. Ma'lumki, mamlakatimizdagi hozirgi ta'lim tizimida malaka oshirish sohasi eng og'riqli nuqtalardan biri desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Hozirgi vaqtda malaka ikki xil – onlayn va oflayn shakllarda amalga oshiriladi. Ikkalasi ham nomiga, hujjat va statistika uchungina olib boriladi. Onlayn malaka oshirish – malaka oshirdi degan hisobot uchungina olib borilmoqda. Chunki bu tizimda kimlardir kimlar uchundir “malaka oshir”moqda, buni nazorat qilishning esa umuman imkoniyati yo'q. Men o'zim ikkinchi yildirki,

onlayn malaka oshiraman. Belgilangan kreditni to'plash uchun tinglovchiga ma'ruza matni, video va slaydlardan iborat taqdimot tashlab beriladi. Ular bilan tanishib chiqilgach esa test ishlab, kredit to'planadi. Bu jarayonning barchasi onlayn tarzda amalga oshirilib, sizning o'ringizda turib boshqa har qanday kishi “malaka oshirishi” mumkin. Aksariyat hollarda shunday bo'lmoqda. Malaka oshirishning ikkinchi, oflayn shaklida esa, o'qituvchi bir yilda bir hafta davomida hududiy malaka oshirish markazida oflayn o'qishda bo'ladi. Shuning o'zi xolos. Hech qanaqa sinov yoki imtihon olinmaydi. Sal hazil qilib aytganda, bir hafta maza qilib dam olish imkoniyati. Oylik saqlangan holda bir hafta dam olish... Orzu qilsa arziydigan malaka oshirish... Nima o'qiding, qanday o'qiding, o'zlashtirdingmi, yo'qmi, ahamiyati bo'lmasa. Mazami? O'qituvchilar uchun ta'lim sohasidagi yangiliklar, yangi uslublar, tajriba va tadqiqotlar bilan eng tezkor tanishish imkonini “Ma'rifat”ga obuna bo'lishda desam mubolag'a emas. Chunki “Ma'rifat”da e'lon qilinadigan yangi uslublar, tadqiqot va tajribalar oliy ta'lim va malaka oshirish tizimiga yetib borishi uchun kamida o'n yillar kerak bo'ladi. Tezkor va shiddatli zamonda esa ta'lim sohasidagi yangiliklar va innovatsiyalardan o'z vaqtida xabardor bo'lishning qanchalik muhim ekanligini tushunish uchun esa judayam aqli bo'lish shart emas.

O'z shaxsiy “podshivka”siga ega bo'lish. Buning ta'mini matbuotning haqiqiy muxlislariga biladi. Xohlagan vaqtingizda sevimli gazeta-ningizning istagan sonini olib o'qish gashti bo'lakcha. Ma'lumki, “Ma'rifat” gazetasi ta'lim-tarbiya sohasiga oid yaxshi maqolalarni, muallifining kimligi, obuna bo'lgan-bo'lmaganligiga qaramasdan, hech qanaqa to'lov yoki ta'malarsiz chop etadi, hatto gonorar to'lanadi. Bundan bir necha yil oldin nufuzli universitetlardan birining professori maqolasi chop etilgan gazeta sonini ijtimoiy tarmoqlar orqali rosa qidirgandi. Rahmim kelib maqolasini suratga olib tashlab bergandim. “Ma'rifat”da attestatsiya savollari e'lon qilingan vaqtlarda gazetani yirtilgan, dog' va kirlangan holda olardim. Sababi, yuzlab o'qituvchi “Matbuot tarqatuvchi” idorasiga kelib, suratga tushirib olishar ekan. O'zingiz xohlagan gazeta, jurnal yoki kitobni xohlagan vaqtingizda o'qishning gashti bo'lakcha. Men she'riyatga ham qiziqaman. Jahon va o'zbek she'riyatining eng sara vakillarini o'qib boraman. Shu kunlardagi, so'nggi yillardagi o'zbek she'riyatidagi yangi nom – Jontemir she'rlarini o'qishni yoqtiraman. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shu darajada rivojlanganki, xohlagan shoiringizning she'rlarini o'z og'zidan eshitish muammo emas. Jontemirning Feysbuk, You tube, Telegramdagi kanallariga obunaman. Ammo uning “Darvesh qo'shig'i” va “Jazba” kitoblarini doimo o'zim bilan olib yuraman. Xohlagan paytimda o'qishim uchun. “Ma'rifat”ning elektron nusxasiga obuna bo'lishni maslahat berishadi. Ammo gazetaning aslini o'qishning gashti bo'lakcha...

(Davomi 6-betda.)



“MA’RIFAT”SIZ TA’LIM-3

YOXUD BOSMA NASHRLAR ROSTAN HAM TA’LIM UCHUN KERAKSIZMI?

(Davomi. Boshi 4-5-betlarda.)

“MA’RIFAT” – RAQOBATBARDOSHLIK OMILI

Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim tizimimizda raqobat muhiti vujudga kela boshladi. Toifalar o'rtasidagi ish haqi farq qilib, ustamalar to'vana boshladi, xalqaro va milliy sertifikatlariga 50 va 20% lik ustamalar joriy etildi. Mutaxassis va oliy toifali o'qituvchi maoshi o'rtasidagi ish haqi farqi yoki milliy sertifikat uchun to'lanadigan bir oylik haq "Ma'rifat"ning bir yillik obunasiga yetadi. Bu gaplarni aytishimdan maqsad nima? Yuqoridagi qo'shimcha haqlar o'z-o'zidan to'lanmaydi, albatta. Bilim, malaka, mahorat va tajribaga ega, ta'lim sohasidagi yangiliklardan xabardor mutaxassislarga qo'shimcha ish haqi uchun qo'yiladigan talablarga javob bera oladi. Majburiy obuna bahonasida matbuotdan uzoqlashgan, turmush tashvishlari izmida o'z ustida ishlay olmagan o'qituvchilar esa yuqoridagi qo'shimcha ish haqi haqida orzu qilmasa ham bo'ladi. Fikrlarimni isbotlash uchun o'z faoliyatimdan misol keltirib o'tsam. Yoshim 58 da. Oliy ma'lumotli va oliy toifali tarix fani o'qituvchisiman. Tarix fanidan milliy sertifikatga ham egaman, 20% ustama to'lanadigan. Tumanimizda 200 nafardan ortiq tarix fani o'qituvchisi bor. Deyarli barchasi bilimdon, o'z fanini mukammal biladigan g'ayratli o'qituvchi. Ammo, adashmasam tumanimizdan mendan boshqa yana bir yosh o'qituvchining milliy sertifikat uchun ish haqi olishini bilaman xolos. Balki ko'proqdir. Ammo men biladigan ko'plab bilimdon o'qituvchilar yo toifa imtihonidan o'ta olishmadi, yo sinovga kirishga botina olishmadi. Ta'kidlaganimdek, aksariyati yosh, bilimdon, tuman, viloyat va respublika miqyosidagi natijalarga ega o'qituvchilar. Menimcha, ularning milliy sertifikat olishmaganligiga ta'lim jarayonidagi yangiliklardan o'z vaqtida xabardor bo'lib bormaganligi sabab bo'ldi, shekilli. Chunki ta'lim nashrlari o'qituvchining davr bilan hamnafaslikda ta'lim sohasidagi yangiliklardan o'z vaqtida xabardor bo'lib borishini ta'minlaydi. Mana sizga ta'lim nashrlarining o'rni, ahamiyati...

O'QITUVCHI MAOSHI...

O'qituvchi va shifokorlar maoshi jamiyatimizda tez-tez tilga tushib turadigan, ayniqsa, o'rtacha maoshlar tilga olinganda, mamlakatdagi o'rtacha maoshdan kamroq oylik to'lanadigan soha xodimlari sifatida eslab qolinadi. Ba'zan bu masalada populistik, real

asoslanmagan ma'lumotlar ham tarqalib qoladi. Yaqinda ana shunday xabarlardan biri ijtimoiy tarmoqlarda o'ziga xos rezonans keltirib chiqardi. Xabarining qisqacha matnini keltirib o'tsak: *"IMB departament direktori Adham Eshchanov matbuot anjumanida berilgan savolga javoban hozir to'liq stavkada ishlab, 2 million so'm oylik olayotgan o'qituvchi yo'qligi, to'liq stavkadagi 2-toifali o'qituvchilarning oyligi 3 million 700 ming so'm ekanini aytdi"*. Endi mazkur masalada real holat qanday ekanligiga to'xtalsak. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining 1 stavka darsi uchun to'lanadigan ish haqi miqdori bilan tanishamiz:

- o'rta maxsus ma'lumotlilar uchun – 2 575 883 so'm;
- oliy ma'lumotli o'qituvchilar uchun – 2 755 648 so'm;
- ikkinchi toifali o'qituvchilar uchun – 3 085 099 so'm;
- birinchi toifali o'qituvchilar uchun – 3 457 740 so'm;
- oliy toifali o'qituvchilar uchun – 3 798 940 so'm.

Adham Eshchanov yuqoridagi ma'lumotlar va o'qituvchilarga darsdan tashqari bajariladigan ishlar uchun to'lanadigan summalarini oddiygina qo'shish orqali xulosa chiqargan va natijani "Amerikani kashf etganday" ishonch bilan aytdi. Ammo aksariyat maktablardagi mavjud dars soatlari va dars taqsimotining amaldagi tartibiga ko'ra 2-toifali o'qituvchiga qancha dars tegishi haqida, darsdan tashqari, qo'shimcha ish haqi to'lanadigan ishlar, ya'ni sinf rahbarlik, daftar tekshirish kabi ishlar bilan barcha o'qituvchilar, ayniqsa 2-toifali o'qituvchilar to'liq ta'minlanadimi? Yoxud ustama barcha o'qituvchilarga, ayniqsa, 2-toifali barcha o'qituvchilarga to'lanadimi, degan savollarni o'ylab ham ko'rmagan bo'lsa kerak. Hatto to'liq bir stavka dars o'tadigan o'qituvchining 12% daromad solig'i, va 1% kasaba uyushma a'zolik badalini chegirib tashlanganda, maoshi hatto 2 million 700 ming so'mga ham yetmaydi. Yoki aniq raqamlarda aytilganda, 2 million 684 ming 37 so'm bo'ladi. Afsuski, barcha 2-toifali o'qituvchilar hatto shu maoshni ham olisholmaydi....

YANA BITTA OLTINSOY...

Xalqimizda "Ko'r ko'paygani-ga xursand" degan maqol bor. Ya'ni ko'r insonlar o'zlari kabi ko'zi ojiz insonlar ko'paysa, xursand bo'lar ekan. Ammo men yuqoridagi jum-lani xursand bo'lib emas, xafa bo'lib qo'lladim. Sababi, ikki yildan buyon Oltinsoy tumanidan "Ma'rifat" gazetasiga faqat men obuna bo'laman. Bu haqida bir qator maqolalarda fikr yuritilgan edi. Mazkur maqolalarda bu-

tun boshli tumandan faqat men obuna bo'ldim, deb maqtanib emas, balki uyat va o'kinch bilan yozgan edim. Qo'shni Denov tumanida esa yuzdan oshiq kishi obuna bo'lishganiga havas qilgandim. Afsuski, bu borada Oltinsoy tumani yolg'iz emas ekan. Xorazm viloyati, Tuproqqal'a tumani ham bemalol Oltinsoy tumani bilan bahslashsa olar ekan. Bu haqida tuproqqal'alik o'qituvchi Munavvara Nurmanovanning "Ma'rifat" mushtariylari telegram guruhida yozgan posti orqali xabar topdim. Mazkur postni keltirib o'tsam: *"O'qituvchilarga obuna bo'lish kerak desangiz, nega endi, majburiymas-ku, deyishadi. Kutubxonaga kirib, gazeta tugul, o'z faniga taalluqli adabiyotlar bilan tanishib ko'rmagan o'qituvchilarni bilaman! Bu juda achinarli holat!.. Maktablarga, yanglishmasam, 5-6 oy "Ma'rifat" gazetasi keladi. Keyin to'xtab qoladi. Obuna bo'linmasa, o'qituvchi bugun ta'limda nimalar bo'layotganidan bexabar qoladi... Gazetaga fevral oyidan bir yillik obuna bo'ldim. Baraka topishsin, tahririyatdagilar yanvar oyi sonlarini chiroyli qilib, konvertga solib pochta orqali jo'natishdi (Hatto o'tgan yilgi dekabr sonidan 1 nusxa qo'shib ham berishdi). Lekin orada 1-2 sonlari kelmadi pochtaning aybi bilan. Iyun oyining sonlari umuman kelmadi. Keyin pochtaga murojaat qildim. Aytishdiki, maktablarga "Ma'rifat"ning obunasi to'xtagani uchun yanglish bo'lib meniki ham kelmay qolganmish. Xavotir olmang, viloyatga aytib, gazetangizni yetkazib beramiz, endi tushunmovchilik bo'lmaydi "Ma'rifat" masalasida. Chunki bu gazetaga tumanda bitta siz obuna bo'libsiz, shaxsiy obuna uchun bittagina "Ma'rifat" keladi, deyishdi. Labimni tishlab qoldim..."*

Postni o'qir ekanman, go'yoki bularni tuproqqal'alik ustoz Munavvara Nurmanova emas o'zim yozgandekman. Naqadar o'xshash manzara. Faqat menda gazetaning ayrim sonlarini kimdir o'marib ketsa, "Matbuot tarqatuvchi" bo'limining boshlig'i Ramazon Choriyev qo'shni Denov tumanidan keltirib beradi. Chunki ular yuz nusxadan oshiq "Ma'rifat" olishadi. Shu o'rinda oldin faqat oltinsoyliklar uchun uyalgan bo'lsam, bu safar tuproqqal'aliklar uchun ham uyaldim. Chunki o'qituvchilarni qo'ya turaylik, har bir tumanda "Ma'rifat"ga obuna bo'lsa oltin uzukka olmos ko'zdek yarashib tushadigan, qanchadan qancha ta'lim tizimining nonini yeb kelayotgan rahbarlar bor. Bog'cha mudiralari, maktab direktorlari, direktor o'rinbosarlari, MMTBda, hokimiyatda ishlaydigan shovvovlar. Mana shu rahbarlarning o'zi yirikroq tumanlarda mingga yaqinlashib qoladi. Yana minglab o'qituvchi va tarbiyachilar... O'qituvchilarning obunasi masalasi

esa bu eng og'riqli masala. Milliy fojia desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

MAJBURIY OBUNA TUGADI(MI)?

Ijtimoiy tarmoqlarda, matbuotda, yig'ilishlarda majburiy obuna masalasi tez-tez tilga olinib turadi. Haqiqatan ham, hozirgi kunda majburiy obuna tugaganmi? Menimcha, majburiy obuna hali uzoq davom etsa kerak. Har holda bizning maktabda obuna reja asosida tashkil etiladi. Shu sabab, majburiy obuna bizning jamoada unchalik sezilmaydi. Ammo majburiy obuna faqat ta'lim nashrlari uchun tugagan, ta'lim xodimlari uchun emas. Chunki majburiy obunaga qarshi kurashuvchi idoralarning o'zlari bu jarayonning boshida turganligi haqidagi xabarlardan so'zimning isboti uchun keltirib o'tsam. *"Oliy sud va Sud-yalar oliy maktabi muassisligidagi 3 ta jurnal va 1 ta gazetaga sud tizimida" ixtiyoriy-majburiy" tarzda obuna kampaniyasi ketyapti. Bundan tashqari, ayrim joylarda huquqshunos muallifligidagi ayni bir kitob ikki marta pullangan. Sud sohasining yuqori organlari bularni rad etdi. Shu o'rinda qaysi nashrlarga obunaga majburanilayotganligi bilan tanishsak:*

"Oliy sudlov" – "Правосудие" jurnali bir yil uchun 504 ming so'm;

"Oliy sud axborotnomasi" – "Бюллетень Верховного суда" jurnali bir yil uchun obuna narxi – 300 ming so'm;

"Kuch adolatda" gazetasi – bir yil uchun – 338 ming so'm;

"Odillik mezon" jurnali – bir yil uchun – 540 ming so'm".

Mana sizga majburiy obuna... Hududlarning nashrlariga, ya'ni viloyat va tuman nashrlariga hamda ayrim soha nashrlariga majburiy obuna bo'lishi go'yoki tabiiy jarayondek qabul qilinsa, ta'lim nashrlariga obuna gaqida gap ketsa, birdan inson huquqlari, majburiy obuna haqidagi vazlar, o'qituvchilarning "himoyachilari" ko'payib ketadi. Ammo yuqoridagi "nufuzli" nashrlarga o'qituvchilar majburan obuna qilinganda kar, ko'r, soqov va gung bo'lib olishadi. "Ma'rifat"ga obuna bo'l desangiz dunyoni buzib dod solishadi. Aslida esa majburiy obunaga qarshi kurash, o'sha "nufuzli" nashrlarga nisbatan olib borilsa adolatliroq bo'lardi. Chunki ularning mundariyasi asosan eskirgan axborot, madhiyabozlikdan iborat surat va xabarlardan, oldi-qochdi maqolalardan iborat. Ta'lim nashrlari esa mamlakat kelajagi bo'lgan yosh avlodga bilim berish uchun xizmat qiladi.

Normamat ESHONQULOV,
Oltinsoy tumanidagi
63-maktab o'qituvchisi



Sarhisob

MILLIY REYTINGDA NECHANCHI O‘RINDASIZ?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularning xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarining Milliy reytingi e‘lon qilib borilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2030-yilgacha oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan edi. Konsepsiyaning dastlabki maqsadi ham O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini ilg‘or universitetlarga aylantirish va dunyoning 500 ta eng yaxshi universitetlari qatoriga qo‘shishdan iborat. Kamida 10 ta universitetni eng yaxshi 1000 ta xalqaro oliy ta’lim muassasalari reytingiga kiritish ham nazarda tutilgan. Va hech qancha vaqt o‘tmay Quacquarelli Symonds – QS World University Rankings xalqaro reyting agentligi 2023-yilgi dunyo universitetlarining “Fan sohalari reytingi” (Subject Rankings) natijalarini e‘lon qildi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Milliy universiteti va “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti 4 ta (zamonaviy tillar, matematika, fizika va astronomiya, atrof-muhit) fan bo‘yicha top-500 oliy ta’lim muassasalari qatoridan o‘rin egalladi.

Har yili milliy reyting tuzilib e‘lon qilib borilayotgani OTMLar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratib, yurtimiz ta’lim tizimida xalqaro miqyosdagi ta’lim sifatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur reytingda bu yil ilk bor 98 ta oliy ta’lim muassasasi (76 ta OTM, 22 ta filial), 62 ta akademik litsey va 14 ta yuridik texnikumlarning 2022-yildagi faoliyat samaradorligi baholandi. Reyting 4 ta yo‘nalishdagi baholash mezonlari, 20 ta indikator va 31 ta ko‘rsatkich asosida tuzilgan.

OTMLar 4 soha: ijtimoiy-gumanitar, san‘at-madaniyat, tibbiyot va texnika-texnologiya, qurilish va qishloq xo‘jaligiga ajratilgan holda saralandi. Shuningdek, ushbu jaryonda 12 563 nafar talabaning fikrlari va mutaxassislik fanlari bo‘yicha bilimlari, 31 379 nafar professor-o‘qituvchining chet tillari va axborot texnologiyalarini bilish darajasi hamda 3 740 nafar ish beruvchining fikri so‘rovnoma asosida o‘rganilib tahlil qilindi.




Joriy yilda eng yuqori natija qayd etgan OTMLar 5 taligidan “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Xalqaro islom akademiyasi, Namangan muhandislik texnologiya instituti, Buxoro davlat tibbiyot instituti va Farg‘ona politexnika instituti o‘rin olgan. 2021-yilda “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat universiteti, Toshkent moliya instituti yetakchilik qilgan edi. 2022-yildagi reyting natijasiga ko‘ra esa yuqoridagi kuchli uchtalik deyarli o‘zgarmagan.

Sohalar bo‘yicha

Ijtimoiy-gumanitar sohalar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarining reytingida yuqori natija qayd etgan oliy ta’lim muassasalari sirasiga O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, Buxoro davlat universiteti kirs, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti quyi o‘rinlarda qolgan.



Tibbiyot sohasi oliy ta’lim muassasalari reytingida Buxoro davlat tibbiyot instituti yetakchi o‘rinda. Esingizda bo‘lsa, abituriyentlarning OTMlarga kirish reytingida ham Buxoro viloyati yetakchilik qilgandi. Keyingi ketma-ketlikdan Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent davlat stomatologiya instituti va Toshkent farmatsevtika instituti o‘rin olgan.



San‘at-madaniyat sohalari bo‘yicha O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi yetakchi uchlikka kirgan.



Texnika, texnologiya, qurilish, qishloq xo‘jaligi sohalari oliy ta’lim muassasalari reytingida yuqori natija qayd etgan oliy ta’lim muassasalari: TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Farg‘ona politexnika instituti. Quyi natija qayd etgan oliy ta’lim muassasalari: Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti.



Akademik litseylar reytingi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, International House Tashkent akademik litseyi, Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universiteti akademik litseyi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi eng yuqori natija qayd etgan bo‘lsa, Qarshi davlat universiteti akademik litseyi, Namangan muhandislik-qurilish instituti akademik litseyi, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali akademik litseyi eng quyi o‘rinlarda joylashgan.



Milliy reyting xalqaro reytinglar safiga kirish uchun tashlangan qadamlardan biri desak adashmaymiz. Kelgusida reyting natijalarini tahlil qilib, xalqaro reytinglarning eng kuchli 500, 100 va 50 taliklarida ham mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari yuqori qatorlarda turishiga umid bog‘lab qolamiz.

Fayoza AVLAYEVA,
“Ma‘rifat” muxbiri

Fanimiz fidoyilari

Mamlakatimizda filologiya sohasi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan keng va atroflicha o'rganilmoqda, biroq asosiy e'tibor nazariy tilshunoslikka qaratilgan. Bir muddat nazariya amaliyotdan, hayotdan uzilib qolgan edi. Ilm maydonida har bir olimning o'z yo'li va shunga mos ilmiy maqsadlari bo'ladi. Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori – Baxtiyor Mengliyev ham bu borada o'ziga xos, jamiyat uchun foydali, zamon talablariga mos ilmiy faoliyat yo'lini tanlagan. O'zi kabi shogirdlarini ham jamiyat uchun to'g'ridan to'g'ri naf keltiradigan tadqiqotlarga, amaliy tilshunoslikka yo'naltirdi. Yosh bo'lishiga qaramay, o'zining ilmiy maktabini shakllantirishga erishdi. Baxtiyor Mengliyev “O'zbek substansial-pragmatik tilshunosligi”, “O'zbek o'quv leksikografiyasi”, “O'zbek milliy-zamonaviy leksikografiyasi”, “Korpus lingvistikasi”, “Lingvoma'naviyatshunoslik”, “O'zbek lingvistik ekspertologiyasi”, “Tipologik leksikografiya”, “O'zbek ortologiyasi” sohalariga asos solib, “O'zbek lingvodidaktikasi”, “O'zbek substansial tilshunosligi”, “Gradual tilshunoslik” yo'nalishlarini esa ilmiy va amaliy rivojlantirishga munosib va samarali hissa qo'shmoqda.

NAZARIYADAN AMALIYOTGA: TILSHUNOSLIK SAMARA BERSIN

Baxtiyor Mengliyev yillar davomida nashr ettirgan maqolalarida ilgari surilgan dolzarb masalalar o'z yechimini topib bormoqda. Olim tomonidan “Ma'rifat” gazetasining 2015-yil 10-oktabr sonida “Amaliy filologiya istiqbollari va uning ‘Davlat tili haqida’gi qonun ijrosiga uyg'unligi” nomli maqolasi e'lon qilingan va unda mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar bayon etilgan edi. Bugungi kunda tilshunoslik bo'yicha aksariyat tadqiqotlarning umrini o'tab bo'lgan talab va mezonlar asosida bajarilishi, tadqiqot xulosalarining zaruriy samaradan xolliligi, “til o'zida”, “til til uchun”, “tadqiqotlar tilshunoslik uchun” yoki g'arbga taqlid ko'rinishidagi “zamonaviy” tamoyillarning chayir illat sifatida ildiz otganligi, tilshunoslikda ijtimoiy hayotdagi yechimini kutayotgan muammolarni ko'ra olmaslik fanning hayotdan, jonli amaliyotdan uzilib qolishiga olib keldi. Amalgga oshirilgan tadqiqotlarda allaqachon yechilgan muammolarning juz'iy qirralariga “dolzarblilik” tusini berishdan tilshunoslikning ijtimoiy taraqqiyoatiga to'siq bo'layotgan muammolarni aniqlash, ularni kompleks hal qilishga o'tish, davlatning fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar uchun ajratayotgan mablag'laridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa amaliy filologiya bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni, amaliy filologik tadqiq ishlarini kuchaytirishni taqozo qiladi. Bu holatni o'zgartirish esa, zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni talab etayotir.

Filologiya fan sohasi sifatida til va adabiyot bilan bog'liq nazariy, ta'limiy va amaliy masalalar bilan shug'ullanadi. Dunyo miqyosida filologiyaning bir necha turi mavjud bo'lib, har bir filologik faoliyat turi ijtimoiy hayotdagi tegishli muammolar bilan bog'liq o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega. Mamlakatimizdagi nazariy, ta'limiy filologik faoliyat turi natijalarini bemaol rivojlangan davlatlar ilmi va ta'limi samaradorligi darajasida deiyish mumkin. Ammo amaliy tilshunoslik shu vaqtga qadar e'tibor qaratilmagan tarmoq hisoblanadi. Til egalarining lisoniy imkoniyatlardan pragmatik foydalanish samaradorligi masalalari bilan shug'ullanadimi,

O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI – MILLIY XAZINA

“Ma'rifat” gazetasining 2018-yil 26-aprel sonida filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev, filologiya fanlari doktori Shahlo Hamroyevlarning o'zbek tili milliy korpusiga talab va ehtiyoj, milliy korpusning imkoniyatlari, muammolari natijalari asosida lug'at tuzuvchilar, kompyuter lingvistlari, tarjimon, jurnalist, til tadqiqotchilari, o'qituvchi va ta'lim oluvchilar keng foydalanadi. O'zbek tilining internetda o'z kontentiga ega bo'lishi hamda ushbu materiallardan lingvistik amallar bajarishda foydalanishga bo'lgan

AMALIY TILSHUNOSLIK: G'OYA TATBIQI BILAN ULUG'

ehtiyoj o'zbek korpus lingvistikasini rivojlantirishning dolzarb ekanligini ko'rsatadi. O'zbek tilining milliy korpusi til materiali o'zbek tabiiy tilini istalgan prizmada tekshirishga imkon yaratadi. Bu esa o'zbek tili korpuslarini ishlab chiqishning nazariy asoslarini tadqiq etish ehtiyojini paydo qildi. Til korpuslarini ishlab chiqishning nazariy asoslari “O'zbek tili mualliflik korpusi tuzishning lingvistik asoslari” (Shahlo Hamroyeva, 2018), “O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi” (Asqar Eshmo'minov, 2019), “Atov birliklarini o'zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari” (Dildora Ahmedova, 2020), “O'zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish” (Gulchehra Begmatova, 2021), “O'zbek tili ta'limiy korpusining lingvistik asoslari” (O'ral Xoliyorov, 2021), “O'zbek tili milliy korpusini yaratishning nazariy va amaliy masalalari” (Guli Toirova, 2021), “Milliy korpus uchun dars dasturi yaratishning lingvistik asoslari” (Otobek Xidirov, 2021), “O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari” (Nilufar Abdurahmonova, 2022), “O'zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari” (Oqila Abdullayeva, 2022), “O'zbek va ingliz tili parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalari” (Rustam Karimov, 2022) kabi mavzularda 10 dan ortiq falsafa doktori va fan doktori darajasidagi dissertatsiyalarning bajarilishiga olib keldi. Professor Baxtiyor Mengliyevning “O'zbek tilining milliy korpusi” maqolasi ko'targan masalalarini monografik tadqiqotlarda yechimini topmoqda. Nazariy tadqiqotlar natijasi o'zbek tilining korpusi yaratilishiga asos bo'lmoqda.

ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA – ZAMON TALABI

Professor Baxtiyor Mengliyevning “Ma'rifat” gazetasi sahifalarida e'lon qilinib kelayotgan qator maqolalarida zamonaviy o'zbek amaliy tilshunosligi masalalari va ularning yechimiga qaratilgan vazifalar sirasida muloqot madaniyati va samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqishga doir o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratish, lisoniy birliklarning semantik strukturasi va pragmatik xususiyatlariga oid monografiyalar, o'quv qo'llanmalarini mukammallashtirish, tadqiqotlar natijalari asosida lug'at tuzishga ham alohida urg'u berilganligiga guvoh bo'lamiz. Darhaqiqat, jamiyat hayoti, ijtimoiy tafakkur yuksalishida lug'atlarning roli beqiyos, bu holat jahon tajribasida o'z isbotini topgan. Har qanday tilning amaliy ifodasi, uning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni va ahamiyati shu tilning lug'atlari asosida baholalanishi ham bejiz emas. Bugungi o'zbek tilining milliy va dunyo sahnidagi o'rni va nufuzi, ta'limi va tatbiqi, kompyuter va axborot texnologiyalariga integratsiyasi bevosita zamonaviy lug'atlar holati va darajasi bilan baholalanadi. Jamiyat taraqqiyoiti,

ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, shaxslararo, madaniyatlararo munosabatlar mavjud til imkoniyatlaridan o'z o'rmda, samarali foydalanishni taqozo qiladi. Shaxsning ijodiy fikrlash, fikrni grammatik-mantiqiy jihatdan to'g'ri ifodalash va qabul qilish qobiliyati, tafakkurini rivojlantirish til va uning amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Tilni tadqiq qilish, uning amaliy masalalari yechimini ta'minlashda lug'atchilik sohasi faoliyati ham alohida o'rin egallaydi. Zamonaviy leksikografiyamiz dolzarb masalalariga doir vazifalarni belgilash va ularning amalga oshirilishining ustuvor usul va yo'llarining kun tartibiga qo'yilishida o'zbek amaliy tilshunosligining yalovbardori professor Baxtiyor Mengliyev va shogirdlarining faoliyati ham e'tiborga molik. Zamon bilan hamnafas tilshunoslikning ahamiyati esa zamonaviy lug'atlar orqali namoyon bo'lishini to'g'ri ta'kidlagan professor Baxtiyor Mengliyev rahbarligida zamonaviy o'zbek leksikografiyasining taraqqiyoatiga hissa bo'lib qo'shiluvchi ilmiy-tadqiqotlar ham muntazam amalga oshirilib kelinmoqda. Kompyuter leksikografiyasi, terminologik lug'atlar, darajali, interaktiv lug'atlar, o'zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini tavsiflaydigan o'quv izohli lug'atlar, milliy til korpusi, ta'limiy korpus, elektron va onlayn lug'atlar, qomuslarni yaratish, mavjud leksikografik mahsulotlarni takomillashtirish, o'zbek tilining universal lug'ati, ta'limiy lug'atlarlarning yangi, zamonaviy turlarini tayyorlash, amaliy faoliyatga tatbiq qilish ishlari-ga rahnamolik tilshunos olimning bugungi kundagi faoliyatining muhim bir qirrasi deb bemaol aytish mumkin. Xususan, professor Baxtiyor Mengliyev ilmiy rahbarligida o'zbek tilining geografik terminologiyasi(Ikrom Islomov), o'zbek leksikografiyasi va lug'atchiligida til va madaniyat mush-tarakligi(Lolaxon Ne'matova), o'zbek tili zamonaviy o'zlashmalari(Otobek Shukurov), etnografizmlar(Nurali Amonturdiyev), leksemaning ko'chma ma'nolari(Sirojiddin Turdimurodov), huquqiy terminlar(E'ziza Sobirova), turizm terminlari(Zarnigor Sobirova), sinonim leksemlar(Farida Saidova) kabi masalalarning leksikografik talqiniga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilib, ularning natijalari amaliyotga keng tatbiq etib kelinmoqda. Shuningdek, zamonaviy leksikografiyamiz masalalari tadqiq natija va xulosalari, tavsilyalarini o'zida mujassam etgan “Leksikografiya va terminografiya: ma'lumotlar bazasi va semantizatsiyasi” nomli jamoaviy monografiya tayyorlandi.

MILLIY O'QUV LUG'ATCHILIGI – MILLIY TA'LIM KO'MAKDOSHI

Professor Baxtiyor Mengliyev va uning shogirdi Bashorat Bahriddinova tomonidan “Ma'rifat” gazetasining 2013-yil 13-sentabr sonida “O'quv lug'atlari” sarlavhali maqola chop etildi va u o'zbek o'quv lug'atchiligining istiqbollari belgilab berdi. Bashorat Bahriddinova, Zaira Rahmatova, Gulan-

dom Mirxanovlar tomonidan fan doktori va falsafa doktori dissertatsiyalari yoqlandi. O'quv lug'atlarini yaratish bo'yicha davlat grantlari e'lon qilindi. Zotan, metodik va huquqiy jihatdan asoslangan leksik minimumlar, terminologik o'quv lug'atlari, darajali, interaktiv lug'atlar, o'zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini tavsiflaydigan o'quv izohli lug'atlarsiz bugungi ona tili ta'limini tasavvur qilish qiyin. Dunyoning qator taraqqiy etgan davlatlarida o'tgan asr boshlaridayoq til o'qitish samaradorligini oshirishning muhim vositasi deb tan olingan, hukumatning doimo diqqat markazida turgan, ayni paytda antroposentrik leksikografiya deb talqin etilayotgan учебная лексикография, educational lexicography, учебный словарь, дошкольный словарь, школьный словарь, school dictionary, children's dictionary, learning dictionary, educational dictionary, kindergarten dictionary, dictionary for kids, kindle edition, booculchacha kabi xalqaro ilmiy terminlar va janrlari bilan tanilgan o'quv lug'atlarivoji mamlakatimizda kun tartibiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, keyinroq 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o'zbek tili yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlarida o'zbek tilshunosligi fani oldiga “o'zbek tilidagi mavjud lug'atlar asosida uzluksiz ta'limning barcha turlari uchun o'quv lug'atlarini yaratish”, ushbu farmon bilan tasdiqlangan “2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da esa mamlakatimizda “o'zbek tili o'quv leksikografiya tarmog'ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o'quv lug'atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini yaratish orqali sohalar bo'yicha milliy terminologik tizimni takomillashtirish” vazifasi qo'yildi. Bu esa ustoz qariyb chorak asr oldin ko'ra olganlaridek, o'quv lug'atlarining, haqiqatan ham leksikografiyaning ta'limiy zarurat tufayli tug'ilgan janri, lingvistik kompetentlikni oshirishning “strategik” vositasi, o'quv lug'atchiligining esa tilshunoslikning eng “qaynoq” sohasi ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Ma'lumki, ilk lingvistik manbalar lug'at ko'rinishida sof amaliy maqsadlar – ilohiy kitoblardagi diniy tushunchalar hamda antik yozuvchilar asarlaridagi ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlash, mustamlaka mamlakatlari aholisiga hukmron mafkura tilini tez va samarali o'rgatish, muloqot madaniyatini oshirish, adabiy tilni me'yorlashtirish, tillararo va madaniyatlararo aloqani ta'minlash maqsadida tuzilgan va ak-sariyati antik maktablar uchun asosiy o'quv vositasi – darslik vazifasini bajargan. Buni miloddan avvalgi to'rt minginchi yilliklarda qadimgi sivilizatsiya o'choqlari – Misr, Mesopotamiya, Yunonistondagi ibodatxona va saroy qoshidagi maktab xarobalaridan topilgan glossariy, vokabulyariy va onomastikonlar tasdiqlaydi. Ustozning bevosita tashabbusi bilan bugungi kunda o'zbek

leksikografiyasidan yangi zamonaviy lingvodidaktik yo'nalish – o'quv lug'atchigi alohida ajralib chiqdi, uning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan o'ndan ortiq tadqiqotlar, ellikka yaqin ta'lim oluvchining yoshi, alohida qobiliyati, millati, ruhiy-psixologik xususiyatlariga mos holda atrofda olamning lisoniy manzarasi bilan tanishtirish, tilni shunchaki tushunish emas, balki undan professional darajada foydalanish ko'nikmasini hosil qilish uchun mo'ljallangan antroposentrik o'quv vosita – yangi avlod o'quv lug'atlari yaratildi.

LINGVOMA'NAVIYATSHUNOSLIK – MILLIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHI

2018-yilda professor Baxtiyor Mengliyevning “Ma'rifat” gazetasida chop etilgan “Taraqqiyot va ma'naviyat”, “Til bag'ridagi ma'naviyat” maqolalarida yangi lingvistik yo'nalish – lingvoma'naviyatshunoslik, uning zarurati, istiqbollari xususida konseptual fikrlar e'lon qilingan edi. Yo'nalishning bosh maqsadi – yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasiga xizmat qiladigan ilmiy-amaliy mexanizm uchun muayyan lingvistik ta'minotni vujudga keltirish vazifari qo'yilgandi. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizda kutilgan natijalarga erishilmayotganining sabablaridan biri ham ushbu maxsus lingvistik bazaning shakllantirilmaganidir. Bu yo'nalishning muammolari, “ma'naviyat” kategoriyasining til tizimidagi o'rni aniqlamasdan turib ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yaxlit tizim sifatida idrok etish mumkin emas. Bugungi kunda tilshunosligimizda lingvoma'naviyatshunoslik yo'nalishida dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. “O'zbek tilining “ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasi “e'tiqod” ma'noviy guruhi atov birliklari tizimi” (Farrux Yo'ldoshev, 2021), “O'zbek tili ma'naviy-ma'rifiy leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoiti” (Gulbahor Tojiyeva, 2018), “O'zbek tilidagi “ma'naviyat” va ingliz tilidagi “spirituality” umumiy semali atov birliklari tipologiyasi” (Mahliyo Ahmedova, 2019), “O'zbek tili “ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “axloq” umumiy semali atov birliklari tizimi” (Shohsanam Bobojonova, 2022) kabi dissertatsiyalar, qator lug'atlar shular jumlasidan. Yo'nalish oldida “ma'naviyat” fenomenini mafkura kategoriyasidan farqlagan holda tilshunoslik aspektida o'rganish, til va ma'naviyat mushtarakligi muammosingin tilshunoslikda yechiladigan xususiy va umumiy masalalarini tizimli hal etish; “ma'naviyat” kategoriyasining mohiyati, tuzilishi, tarkibiy qismlari va elementlari, ular orasidagi munosabatlarni aniqlash, “ma'naviyat” kategoriyasiga oid til hodisalarini kompleks tahlil qilish; ushbu kategoriya doirasidagi terminlarni lug'atlarda berish, izohlash, izohlarni takomillashtirish, tegishli lug'atlarini va qomuslarini tuzish masalalari, ushbu kategoriyani o'zbek tilining milliy korpuslarida joylash-tirish masalalari turibdi.



SUBSTANSIAL-PRAGMATIK: IMKONIYAT VA VOQELIK MUSHTARAKLIGI

“Ma'rifat” gazetasining 2015-yil 13-may sonida filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev tomonidan (“Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi”) o'zbek tili lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelani shi muammolari tadqiqi konsepsiyasi e'lon qilingandi. Bu o'zbek substansial-pragmatik tilshunosligining yangi empirik yo'nalishi shakllanishiga asos bo'ldi. Yo'nalish lisoniy imkoniyatlarni so'zlovchi, tinglovchi, ularning muloqot vaziyonidagi o'zaro munosabati, muloqot madaniyati, so'zlovchi yoki tinglovchining dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishlari kabi qator nolisoniylar bilan mushtarak holda yuzaga chiqishida namoyon bo'lishini ko'rsatib berdi. Substansial-pragmatik tilshunoslik substansial tilshunoslikning zamirida shakllangan istiqbolli yo'nalish, uning lisoniy imkoniyatning yuzlab muayyan voqelani sh, shakl-ko'rinishlarini ochgach, bu shakl-ko'rinishlardan qay birini, qay bir sharoitda qo'llash ko'proq samara berishini aniqlashga e'tibor qaratilishi dalillandir. Dunyo pragmalingvistikasi oddiygina nutqiy muloqot jarayonini bevosita samaradorligi nuqtayi nazaridan o'rganishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, o'zbek substansial-pragmatizmi ochilgan, tavsiflangan imkoniyatlar xazinasidan kelib chiqishi asoslandi. Pirovardida o'zbek tilshunosligida nutq samaradorligiga erishishning amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi fan yo'nalishlarining nazariy asoslari vujudga keldi. Tilshunoslikning ushbu yo'nalishida “Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo hamkorlik” (Baxtiyor Mengliyev, 2001), “Grammatik ma'no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida”(Manzura Emazarova, 2018) mavzusida fan doktori darajasidagi, (“O'zbek tilida fe'l lug'aviy shakllari tizimi” (Bashorat Bahriddinova, 2001), “Semema, nutqiy ma'no va uning leksikografik talqini” (Sharif Bobojonov, 2004), “O'zbek tili substansial-pragmatik tadqiq qilishning metodologik asoslari” (Javlon Ibrohi-

mov, 2019) kabi mavzularda 10 dan ortiq nomzodlik va falsafa doktori darajasidagi dissertatsiyalar yoqlandi. Hozir substansial-pragmatik yo'nalish bo'yicha muloqot madaniyati va samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqishga doir o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratish, lisoniy birliklarning semantik strukturasi va pragmatik xususiyatlariga oid monografiyalar, o'quv qo'llanmalarini mukammallashtirish, tadqiqotlar natijalari asosida lug'at tuzish, ta'limning turli bo'g'inlari uchun yaratilgan o'zbek tilidan darslik va qo'llanmalar, oliy filologik ta'limda ixtisoslik va tanlov fanlarini takomillashtirish kabi vazifalar mavjud, soha mutaxassislari ularning yechimi ustida ishlamoqda.

LINGVISTIK EKSPERTOLOGIYA SAMARASI

“Ma'rifat” gazetasining 2022-yil 7-dekabr sonida e'lon qilingan professor Baxtiyor Mengliyev va Kamola Musulmonova muallifligidagi “Lingvistik ekspertiza: talab va ehtiyoj” nomli maqolasida bugungi kunda o'zbek lingvistik ekspertologiyasi oldida turgan dolzarb muammolar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olingan edi. Bu jarayonda shaxs sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka daxl qilish yuzasidan ko'plab da'vo arizalari soni sud-tergov tizimida oshib bormoqda. Jahonda haqorat holatlari, mualliflik identifikatsiyasini amalga oshirish, siyosiy matnlar ekspertizasi yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilgan, bugungi kunda amaliyotga keng tatbiq etilgan. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan davlat sud ekspertizalari negizida esa lingvistik ekspertizani amalga oshirish bo'yicha metodik qo'llanmalar, uslubiyotlar soni talab darajasida deb bo'lmaydi. Bu esa, o'z navbatida, ekspert oldida qator qiyinchiliklarni paydo qiladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda shaxsni obro'sizlantirish, haqorat qilish holatlari bilan bog'liq murojaatlar soni yildan yilga jadal sur'atlarda ko'payib bormoqda. Bu esa lingvistik ekspertizaning metodologik asoslarini yaratish, kadrlar tayyorlash, mexanizmini ishlab chiqish zarurati borligini bildiradi.

(Davomi 10-betda.)

Fanimiz fidoyilari

AMALIY TILSHUNOSLIK: G'OYA TATBIQI BILAN ULUG'

(Davomi. Boshi 8-9-betlarda.)

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz huquq-tartibot, sud-prokuratura tizimida har yili 500 tagacha og'zaki yoki yozma matn lingvistik ekspertiza qilinadi. U, asosan, xorijiy tillar metodologiyasi asosida amalga oshirib kelinadi. Milliy lingvistik ekspertiza metodologiyasini yaratish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan buyurtma qilindi. Shu asosda professor Baxtiyor Mengliyev tomonidan muammo ilmiy-tadqiqotlar uchun tizimlashtirildi va nazariy hamda amaliy tadqiqotlar mavzulari banki yaratildi. Olim rahbarligida "O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi" (Dildora To'rayeva, 2022), "O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari" (Kamola Musulmonova, 2022), "Ilmiy matndagi sodda darak gaplarning mazmuniy o'xshashligi va lingvistik modellari" (Abror Murtazoyev, 2022), "Lingvistik ekspertiza uchun anonim matnlardagi noadabiy birliklarning shaxs yoshiga xoslanishini aniqlash" (Sevara Yoqubova, 2022) "O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda ayollar nutqining xususiyatlari" (Guljahon Hotamova, 2022), "O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy

unsurlarning gender xoslanishi" (Orifa Xudoyberdiyeva, 2022) mavzularida falsafa doktori darajasidagi dissertatsiyalar bajarildi va "O'zbek tilida ekstremistik matn kategoriyasi va avtorizatsiyasi" (Abror Qurbonmurodov) va boshqa qator ishlar amalga oshirilmoqda. Olim tashabbusi bilan tashkil etilgan "Amaliy filologiya" bakalavr yo'nalishida lingvistik ekspertiza bo'yicha bir nechta fandan mashg'ulotlar olib borilmoqda. Shuningdek, 2023-yilda lingvistik ekspertiza bo'yicha kompetentli kadrlar tayyorlash uchun "Lingvistik ekspertologiya" magistratura mutaxassisligini ochish rejalashtirilmoqda.

ONA TILNING KOGNITIV-PRAGMATIK TA'LIMI

Olim tadqiqotlarining amaliy ahamiyatini bevosita ona tili ta'limining takomilida ko'rish mumkin. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tili ta'limi mazmunini yangilash, yangi o'qitish metodikasini amaliyotga joriy qilishga doir, ortiqcha grammatizmdan voz kechib, o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatlari-

ga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash milliy modelini ishlab chiqdi. Ona tili ta'limining islohotchilaridan biri – professor Baxtiyor Mengliyev ona tili ta'limini isloh qilish bo'yicha takliflar bilan chiqdi. Bu o'n yillar davomida "Ma'rifat" gazetasi, "Til va adabiyot ta'limi" jumllarida chop qilindi. Olim umumiy o'rta ta'lim nazariyasiga ilk bor "leksik minimum", "grammatik maksimum" tushunchalarini olib kirdi. Shu asosda ona tili ta'limi mazmunidagi ortiqcha grammatizmi qisqartirishga erishildi. Mutaxassislar umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tili ta'limi mazmunini yangilash, yangi o'qitish metodikasini amaliyotga joriy qilish – o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy til, milliy ma'naviyatni o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash mexanizmini ishlab chiqishdi. Ta'lim usuli kognitiv-pragmatik tabiat kasb etdi. Mazkur zamonaviy milliy metodika asosida 8–10–11-sinf "Ona tili" darsliklari yaratildi va ular hozir amaliyotda qo'llanmoqda. Ta'limning nazariy-metodologik ta'minotini takomillashtirish maqsadida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy tafakkurini rivojlantirish vositasi bo'lgan o'quv topshiriqlarini takomillashtirish, tizimlashtirish va zamonaviy-

lashtirish (G'ofir Hamroyev, 2018, 2022), o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini baholashning zamonaviy milliy tizimini yaratish (Shohrux Abdurayimov, 2021) hamda xorijlik o'rganuvchilar uchun o'zbek tilining darajalangan, oddiydan murakkabga boruvchi leksik, morfologik va sintaktik bazasini yaratish (Shoira Bobomurodova) muammolari doirasida bir nechta tadqiqot amalga oshirildi va jarayon davom etmoqda.

Professor Baxtiyor Mengliyev o'zining ko'p tarmoqli amaliy ahamiyatga molik tadqiqotlari bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Olimlarimiz o'z izlanishlarini amaliyotga bog'lay olmas ekan, jamiyat taraqqiy etmaydi. Bu borada bag'rikeng, shogirdlarga do'stona munosabatda bo'luvchi, shaxs uchun ham, davlat, ilm-fan uchun ham foyda keltiruvchi to'g'ri yo'lni ko'rsata oladigan Baxtiyor Mengliyev kabi g'amxo'r, maslakdosh ustozlardan ibrat olish kerak. Shuningdek, olimning g'oyalari bir qator sohalarini tashkil etilishda poydevor vazifasini o'tamoqda.

Abdug'afur MAMATOV,
filologiya fanlari doktori,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
professori

Xurshid XAYRULLAYEV,
filologiya fanlari doktori,
Samarqand davlat chet tillari instituti
professori

Inomjon AZIMOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
ToshDO'TAU
huzuridagi Davlat tilida ish yuritish
asoslarini o'qitish va malaka oshirish
markazi direktori

YARQ ETGAN KASHFIYOT HAYRATI

Chaqmoq misol yarqirab ko'zni qamashtiradigan kashfiyot egalariga ko'pchilik havas bilan qaraydi. Bu iste'dodli shaxsni OLIM deb ataydi. Ammo jamiyatimizda ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan minglab kishilarni topishimiz mumkin. Ularning ko'pchiligi "Qanday kashfiyot qildingiz?" degan oddiygina savolga javob berishga qiynaladi.

Xususan, ijtimoiy sohada tadqiqotlar olib borayotgan olimlarimizning faoliyatiga baho berishimizda bugungi zamon talablaridan kelib chiqib yuqoridagi savolga javob izlasangiz mening kechinmalarimni his qilasiz. Aslida har bir fan sohasi fidoyisi (agarda u fidoyi bo'la olsa) amalga oshirayotgan ilmiy izlanishlari jamiyat hayotida qanday ahamiyat kasb etayotgani, qanday ijtimoiy mohiyatga ega bo'layotganini o'zi sarhisob qilishi lozim. Yangi asr ijtimoiy fanlarda tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu islohotlar xalqimiz ma'naviy dunyoqarashida o'z o'miga ega bo'lishi, yoshlarimizning tafakkurida ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmog'i lozim. Buning uchun faqat va faqat yarq etgan kashfiyotlar zarur. Zero, bugungi kunning talabi ham shu. Ko'pchilik ijtimoiy fanlar sohasidagi kashfiyotlarga nisbatan bu talab noto'g'ri ekanini aytishadi. Bu fikrga qo'shilmayman. Yana ta'kidlayman, yarq etgan favqulodda g'oyalarga ega shaxsgina zamonamizning haqiqiy olimi sanalishi lozim. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik kabi ixtisosliklarda yaratilayotgan tadqiqotlarni kuzatar ekanman, aksariyat hollarda almisoqdan qolgan sovet olimlarining nazariy qarashlariga mahkam tirmashib olgan, ularning istilohlariga misollar topish bilan band bo'layotgan tadqiqotchilarga rahmim keladi.

Ammo shunday olimlarimiz borki, o'zining har bir tadqiqoti, har bir shogirdi ishida mislsiz yangiliklarga qo'l uradi. Undaylar asl tug'ma iste'dod sohiblaridir. Filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev mana shunday noyob iste'dod sohibi.

Olimning fanga kirib kelishi o'tgan asrning 90-yillariga to'g'ri keladi. U o'zining hali nomzodlik dissertatsiyasi ustida izlanishlari samarasi sifatidayoq o'zbek tilshunosligida hukmron bo'lgan "o'zbek tilidagi ayrim grammatik shakllariga sintaktik vazifa bajaradi", degan an'anaviy qarashlarga barham berdi va barcha grammatik shakllar sintaktik imkoniyatlarga egaligini isbotladi ("Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari", nomzodlik dissertatsiyasi, 1996). Tadqiqotchining inqilobiy xarakterdagi yangi nazariy qarashlari ko'plab muhokamalarga sabab bo'ldi. Biroq iste'dodli tilshunos rus tili qoliqlari asosida fe'lning funksional shakllari deb

atalgan tilimizdagi tizim(ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi)ning kategorial xususiyatlarini aniqladi va o'zbek tilshunosligiga alohida morfologik kategoriya – "o'zga-lovchi kategoriya" tushunchasi va terminini fanga birinchi bo'lib olib kirdi ("Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari", nomzodlik dissertatsiyasi, 1996). Mengliyev o'zbek tilshunosligida yangi-yangi nazariy qarashlar bilan ilmiy jamoatchilikni hayratlantira boshladi. Xususan, 2000-yillarning boshlarida jahon tilshunosligida til sathlari(fonetik sath, leksik sath, grammatik sath) doirasidagina e'tirof etib kelingan sistemaviylik ta'limotini yangi bosqichga olib chiqdi – nafaqat sathlar, hatto tilning o'zi ham yaxlit sistema ekanligini ilmiy asosladi. Olim o'z nazariy qarashlarini 2001-yildagi "Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida ishonchli dalillar bilan isbotladi.

O'z ilmiy faoliyati davomida 17 fan doktori, 48 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori tayyorlagan tilshunosning yangidan yangi g'oyalari butun o'zbek tilshunosligi va til ta'limida tub burilishga olib keldi. Davr talablariga hamohang ravishda o'ta zukkolik bilan o'zbek tilshunosligida "O'zbek korpus tilshunosligi" ilmiy yo'nalishiga asos soldi va bu borada bevosita Baxtiyor Mengliyev rahbarligida 10 dan ortiq dissertatsiya himoya qilindi. O'zbek tilshunosligi tarixida ilk bor Baxtiyor Mengliyev tomonidan va uning shaxsiy g'oyalari asosida juda ulkan ish – o'zbek tilining "Grammatik shakllar lug'ati", morfologik, semantik va sintaktik analizatorlari yaratishga kirishildi va bu ish muvaffaqiyatli yakunlandi. O'zbek tilshunosligi mazmunan yangi bosqichga ko'tarildi. Tilshunos Baxtiyor Mengliyev tomonidan tilshunoslik sohasida "O'zbek milliy korpusi"ning tamal toshi qo'yildi. Bu o'zbek madaniyati taraqqiyotiga qo'shilgan ulkan hissadir.

Baxtiyor Mengliyev o'z ilmiy faoliyati davomida tilshunoslik ixtisosligi doirasida o'zbek ilmiy jamoatchiligi uchun mutlaqo yangi sohalarini kashf qildi. Jumladan, jahon tilshunosligida ilk bor "til va ma'naviyat mushtarakligi" tamoyili asosida ish ko'rib, shaxsni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy amaliyot uchun

lingvistik baza tayyorlaydigan "Lingvoma'naviyatshunoslik" ilmiy yo'nalishiga asos soldi. Milliy ma'naviyatimiz takomili va rivojida tilning o'rnini ko'rsatib berishga bag'ishlangan qator tadqiqotlarning yaratilishiga rahnamolik qilmoqda. Baxtiyor Mengliyevning tadqiqot doirasi tilshunoslik fanining yangidan yangi qirralarini ochishga bag'ishlangan hayratomuz kashfiyotlar bilan kengaya bordi. Olim o'zbek leksikografiyasi va lug'atchilik amaliyotiga o'zbek fanida ochilgan darajalanish (graduonimiya) qonuniyatini tatbiq qilish bo'yicha tadqiqotlar tizimini shakllantirdi. O'zbek lug'atchiligida graduonimiya qonuniyatini tatbiq qilish sohada jiddiy o'zgarishlarning maydonga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada o'zbek tilshunosligida lug'atlarning yangi avlodini yaratish ehtiyoji paydo bo'ldi. Zero, har qanday til o'z leksik qatlamining boyishi manbalari, tarkibi va hajmi nuqtayi nazaridan o'ziga xoslik kasb etadi. So'zlarning graduonimik munosabati, darajalanish uning ma'noviy sathi, semantik ma'no maydonining kengayishiga sabab bo'lishi tilshunosligimizda amaldagi qonuniyatlar borasidagi qarashlar o'zgarishiga olib keldi.

Baxtiyor Mengliyevning tilshunos olim sifatida amalga oshirgan ishlaridan yana biri uning o'zbek tilshunosligida "Lingvistik ekspertologiya" ilmiy yo'nalishiga asos solganligidir. Mazkur soha ayni damda jadal rivojlanmoqda. Ayni shu sohada Baxtiyor Mengliyev rahbarligida 10 dan ortiq dissertatsiya ishlari muvaffaqiyatli yoqlandi. Usto'z o'z g'oyalari va amalga oshirgan ishlari bilan mamlakatimiz OTMlarida tayyorlanadigan mutaxassisliklardan farqli o'laroq filolog-ekspertlar, lingvist-ekspertlar tayyorlash tizimini rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, "Amaliy filologiya", "Amaliy lingvistika" kabi fan sohalariga asos solganligi ham olimning benihoya teran tafakkur, chuqur bilim va keng quvvayi hofizasini belgilab beradi.

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligi fanida ulkan ishlarni amalga oshirayotgan fidoyi va kamtarin olimning ba'zi ilmiy kashfiyotlari borasidagi hayratimni o'rtoqlashdim, xolos. Umid qilamizki, hali mamlakatimizda zamon talablariga javob beradigan, kreativ fikrlaydigan, yangi g'oyalari bilan dunyoni lol qoldirajak tadqiqotchilar ko'payadi.

Olimjon QAYUMOV,
Toshkent amaliy fanlar
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Tarbiya – saodat

Ona tarbiyasi – buyuklikka yo'llanma

Shaxsning yuksak ma'naviyatli, keng dunyoqarashli inson sifatida kamolga yetishida oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar asosiy vosita rolini o'taydi.



Zero, jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning **“Taraqqiy etgan millatlarni onalari o'qitir ekan, biz avval onalarimizni o'qitub, ularga til o'rgatmog'imiz kerak, chunki bizning ilm va tilsizligimiz ulardandur”**, degan purma'no hikmatlarini o'qigan insonning xayoliga birdan xalqimizning “Otasi o'qiganning biri o'qiydi, onasi o'qiganning biri o'qiydi”, degan hikmatli so'zlari kelishi tabiiydir.

Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada ham xotin-qizlarning barcha sohalarida teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. Hukumat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaati hamisha ustuvor bo'lib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim va tarbiyaga e'tiborning kuchaytirilishi bilan yanada mustahkamlandi. Yurtimiz ravnaqi, farzandlarimizning, xususan qizlarimizning bilimli, har jihatdan barkamol bo'lib ulg'ayishida, jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksalishida xotin-qizlarimizning hissasi kattadir. Yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e'tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta'lim va hatto harbiy sohada xizmatlari beqiyosligi barchamizga faxr va iftixor bag'ishlaydi. Yurtimizda xotin-qizlarning mavqeyini yanada yuksaltirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarida ularning bilimlarini kuchaytirish maqsadida yanada kengroq shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarda xotin-qizlarning faolligini ta'minlashning asosiy omili – ta'lim va tarbiya uyg'unligi bilan birga ularning qay darajada kitobxon ekanligidir. Buning quyidagi bosqichlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

➤ “Kitobxonlik oiladan boshlanadi!” shiori asosida har bir xonadonda kitob o'qishni ommalashtirish, kutubxonalarga ota-ona va oilaviy borish, uyda

“Biz birgalikda kitob o'qiyamiz”, “Bir soatlik kitob o'qish” soatlarini yo'lga qo'yish;

➤ oilada ota-onalar tomonidan farzandlarga tarbiya berish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorida, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar xususida tushunchalar berib borish;

➤ maktabgacha ta'lim muassasalarida, ya'ni tarbiyaviy urg'uni bolalar bog'chasida tarbiyalanuvchilar mamlakat siyosiy hayotining bo'lajak ishtirokchilari ekanligi hissini uyg'otuvchi uslublarning zamonaviy vositalaridan foydalanish;

➤ maktab kutubxonalari bilan birga o'quvchilarning ijtimoiy-siyosiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojini oshirishga yo'naltirilgan fanlardan ta'lim berish;

➤ oliy ta'lim va undan keyingi bosqichlarda siyosiy va huquqiy madaniyatni tadqiq etishga oid ilmiy-nazariy va amaliy faoliyatga rag'bat berish, bunda kutubxonalar, ta'lim muassasalari va davlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni keng yo'lga qo'yish;

➤ yosh qizlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda madaniyat obyektlari, ya'ni kino, teatr, kutubxona, muzey kabilar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ularning ishtirokini ta'minlash, ushbu yo'nalishlardagi munozara-debatlardagi faolligini oshirishga qaratilgan turli mavzularda adabiy viktorinalar, ko'rik-tanlovlar tashkil etish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash, yosh qizlarning jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish ham ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarimizning asosini tashkil etadi. Bu borada xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan axborot-kutubxona muassasalarining ham roli katta.

Darhaqiqat, ilm olish dinimizda ham ulug' ibodat sanaladi. Islom dinida jaholatga qarshi ilm-ma'rifat bilan kurashishga katta e'tibor qaratilgan. O'qish

– ilmning kaliti. Dunyoviy ilmlarni egalashga jiddu jahd etmagan inson hayotining saodatli kechishini tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'lumki, dinimiz ham ilm o'rganishga xotin-qizlarni targ'ib etgan. Negaki, jamiyatning yarmini ayollar tashkil etadi. Ularni ilmsiz qoldirish jamiyatni ilmsiz qoldirish demakdir. Chunki kelajak avlod tarbiyasi xotin-qizlarning qanchalik ma'rifatli ekaniga bog'liq. Ular ilmli bo'lsa, kelajak avlod ham bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'ladi. Ular odobli bo'lsa, kelajak avlod ham odobli bo'ladi. Bir odam donishmandning oldiga borib: “Hazrat, mening bir o'g'lim va bir qizim bor. Ikkalasini o'qitishga qurbim yetmaydi, faqat bittasini o'qitishga imkonim bor, qaysi birini o'qitay?” deb so'rabdi. Donishmand unga: “Qizingni o'qit, chunki u kelajakda farzand tarbiya qiladi. Agar o'g'lingni o'qitsang, bir kishini o'qitgan bo'lasan, ammo qizingni o'qitsang, butun jamiyatni o'qitgan bo'lasan”, deb javob bergan ekan.

Ana shu hikoyatning isboti ko'z o'ngimizda: qanchadan-qancha allo-malarni onalar tarbiyalaganiga barchamiz guvohmiz. Jamiyatimizning salohiyati va ravnaqi uning ilmga bo'lgan munosabati bilan o'lchanadi. Qaysiki jamiyatda ilmga tashnalik susaysa, ilm o'rganishga e'tibor kamaysa, o'sha jamiyat taraqqiyotdan ortda qolib, ma'naviy inqirozga yuz tutadi.

Har bir jamiyatning olimlari, ziyolilari, ota-onalar millatning ma'naviy dunyosi qashshoqlanmasligiga, axloqi buzilmasligiga, soxta va buzg'unchi e'tiqodlar, “ommaviy madaniyat” ta'siriga tushib qolmasligiga mas'uldir. Farzandlarimizga yoshligidan boshlab maktabga borib ta'lim olish bilan birga kitobga oshno bo'lish, uni muntazam mutolaa qilishning ibodat ekanini uqtirishimiz kerak. Ustoz, o'qituvchi-murabbiylar ham o'zlariga yuklatilgan burch va mas'uliyatni anglab, ta'lim-tarbiyani puxta olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda berilayotgan darslarni puxta o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratish har bir ota-ona va ustozning zimmasidagi mas'uliyatdir. Bolalarni o'z holiga tashlab qo'yib, qayerda yurgani, kimlar bilan o'rtoqlashayotgani, nimalarga qiziqayotganidan ogoh bo'lmaslik yaxshilikka olib bormaydi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy “Hayratul-abror” asarida zikr qilganidek:

*Har nafasing holidan ogoh bo'l,
Balki anga hush ila hamroh bo'l.
G'aflat agar bo'lsa bu ishdin, dame,
Kim yo'q aningdek kishiga motame.*

Farzand tarbiyasida, ayniqsa, ona jonsarak bo'lmog'i lozim. Ilm berish, tarbiya qilishda yaxshi gap manfaatli va, albatta, maqsadli bo'ladi. Dono xalqimiz “Yaxshi gapga ilon inidan chiqar, yomon gapga pichoq qinidan” deb bejiz aytmagan.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, elektr chiroqni kashf qilgan Tomas

Edison bolaligida maktabdan kelib onasiga ustoz berib yuborgan maktubni tutqazadi. Ona maktubni o'qir ekan, ko'zlaridan yoshlar oqdi. Bundan yosh Tomas xavotirga tushib yig'ining sababini so'radi. Onasi mehribonlik ila javob berdi: “Sening kuchli qobiliyating bor ekan. Mana eshit: “O'g'lingiz o'ta iqtidorli, maktab unga va uning qobiliyatiga torlik qiladi. Shuning uchun o'g'lingiz uyda ta'lim ola qolsin!”.

Shunday qilib, Edison o'z uyida onasidan ta'lim-tarbiya ola boshladi. Oradan yillar o'tdi. U lampochkani ixtiro qildi, buyuk kashfiyotchi olim bo'lib yetishdi. Vaqti-soati yetib onasi vafot etdi. Onasining vafotidan keyin olim uning narsalari turadigan javondan maktub topib oldi. Ancha yil o'tgan bo'lsada, maktubni darrov tanidi. Bu – o'sha, maktabdagi ustoz yozib bergan maktub edi. Bir zum xotiralar og'ushida qolgan Edison xatni o'z ko'zi bilan o'qiy boshladi. Unda bunday deb yozilgan edi: “O'g'lingiz o'ta beaql va qobiliyatsiz bola. Ertadan boshlab maktabga kelmasin!”. Edison ancha vaqtgacha yig'isini to'xtata olmadi. So'ng xotiralar daf-tariga quyidagi so'zlarni bitib qo'ydi: “Edison haqiqatan kaltafahm bola edi, biroq onasining go'zal tarbiyasi sababli iste'dod sohibiga aylandi”.

Darhaqiqat, Tomas Edison lampochkaning zamonaviy shakli, vilka, rozetkalar bilan elektr yoritishni ommaviy qo'llash uchun ko'p kashfiyotlar qildi. Kinoapparat, elektr cho'g'lanma lampaning birinchi tijorat jihatdan muvaffaqiyatli variantlaridan birini ishlab chiqdi va boshqa variantlarni takomillashtirdi. Aynan u telefon suhbatining boshida “Allo” so'zini ishlatishni taklif qilgan insondir. Tomas Alva Edison – amerikalik ixtirochi va tadbirkor darajasiga ko'tarilgan, AQSHda 1093 ta patent va dunyoning boshqa mamlakatlarida 3 mingga yaqin patent olish baxtiga sazovor bo'lgan buyuk shaxsga aylangan va tarixda qolgan.

Tomas Edisonning mashaqqatli mehnatlari AQSH harbiy-dengiz kuchlarining “Ajoyib xizmat uchun” medali, Benjamin Franklin medali, AQSH Kongressining Oltin medali kabi ko'plab mukofotlar bilan taqdirlangan. Bularning hammasi ONAning quyoshdek qaynoq mehri va KITOBdek beminnat ustozning bergan kuchli ta'limotlarining samarasidir.

Zero, “Kitobxon onalar” birlashib, hamkorlikdagi faoliyatimiz jarayonida yoshlarimizni, bolalarimizni kitobga oshno qilib, uni o'qishga targ'ib qilib, ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalab, kitobsevar qilaylik. Faqat internet bilan cheklanib, ilmni yuzaki o'rganmasdan, kitob mutolaasiga ham e'tibor qaratish ayni davrning dolzarb vazifasiga aylandi. Farzandlarimizning ilm-ma'rifatli bo'lishida eng katta mas'uliyat biz ota-onalar zimmasida, ayniqsa, kitobxon onalar – ayollar qo'lida ekanini zinhor unutmaylik.

Hafiza KARIMOVA,
Ma'naviy-ma'rifiy ishlar a'lochisi

SHVEYTSARIYADA YOZILGAN TARIX

Dunyo bo'yicha har yili maktab o'quvchilari o'rtasida tabiiy va aniq fanlardan o'tkaziladigan ko'plab jahon olimpiadalari mavjud. Unda eng iqtidorli o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazadi. Xalqaro fan olimpiadalarini 2 turga ajratish mumkin. Birinchisi, har bir mamlakatdan faqat bitta terma jamoa ishtirok etadigan xalqaro olimpiadalar, ikkinchisi esa har bir mamlakatdan bir nechta jamoa ishtirok etishi mumkin bo'lgan xalqaro olimpiadalaridir.

Hozirgi kunda o'zbekistonlik o'quvchilar ko'plab nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etmoqda. Shulardan biri Xalqaro kimyo olimpiadasi (International Chemistry Olympiad, ICHO) hisoblanadi. Bu olimpiada har yili 20 yoshdan katta bo'lmagan maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. Olimpiadaning asosiy maqsadi – dunyo bo'ylab maktab o'quvchilarining aniq fanlarga qiziqishini oshirishdan iborat. Ushbu olimpiada 1968-yildan buyon o'tkaziladi va unda O'zbekiston terma jamoasi ilk bor 2013-yida ishtirok etgan. Olimpiada nizomiga muvofiq, har bir mamlakatdan to'rt nafardan ortiq bo'lmagan o'quvchilar va ikki murabbiydan iborat jamoa ishtirok etadi. Ilk marotaba 1968-yili Chexoslovakiyada bo'lib o'tgan. Nufuzi yuqori darajaga chiqib ulgurgan olimpiada 1971-yildan tashqari har yili o'tkazilib kelinmoqda. Dastlabki musobaqada 3 ta davlat jamoalari ishtirok etgan. Uch ishtirokchi davlatning har biri olti talabadan iborat guruhni tashkil etgan. Unda 4 ta nazariy vazifalarni bajarish taklif qilingan. Ikkinchi kimyo olimpiadasi 1969-yili Polshada bo'lib o'tgan. Avvaliga har bir jamoa besh nafar o'quvchidan iborat bo'lib, bunda eksperimental tur qo'shildi. Keyin ishtirokchilar sonini to'rttaga cheklab, ko'proq jamoalarni taklif qilishga qaror qilindi. 1970-yili uchinchi Olimpiada Vengriyada tashkil etildi. Yildan yilga ushbu musobaqaning nufuzi ortib, ishtirokchi davlatlar soni doimiy ravishda ko'payib bordi va hozirgi kunda Xalqaro kimyo olimpiadasida 60 dan ortiq davlatdan kelgan jamoalar ishtirok etmoqda.

O'zbekiston terma jamoasining ishtiroki qanday degan haqli savol tug'ilishi bor gap. Milliy terma jamoamiz vakillari ushbu olimpiadada ilk bor 2013-yili qatnashib bitta oltin va ikkita bronza medali sohibi bo'lgan. Shu yildan boshlab terma jamoamiz har yili muntazam ravishda ishtirok etib kelmoqda. Olimpiada ikki bosqichdan iborat:

- 1-bosqich: eksperimental;
- 2-bosqich: nazariy savollar.

Ikkala bosqichga ham 5 soatdan vaqt ajratiladi va turli kunlarda o'tkaziladi. Nazariy turda maksimal 60, amaliy turda 40 ball beriladi. Har bir tur bir-biridan mustaqil ravishda baholanadi va imtihon natijalari yig'indisi qatnashchining umumiy natijasini aniqlaydi. Har bir ishtirokchi davlatdan

ikki murabbiy xalqaro hay'at a'zolari tayyorlagan topshiriqlarni muhokama qiladi va ularni milliy tiliga o'giradi. ICHOda rasmiy ravishda ishtirokchilar individual baholanadi. Joriy yilning 16–25-iyul kunlari Xalqaro kimyo olimpiadasi (ICHO) 55-bor o'tkazilib, unga Shveysariya davlati mezbonlik qildi. E'tiborlisi, unda dunyoning 87 mamlakatidan 400 ga yaqin o'quvchilar ishtirok etdi. O'zbekiston sharafini esa quyidagi to'rt nafar o'quvchilarimiz himoya qilib, delegatsiyamizga 100 foizlik natijani (2 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza) taqdim etdi:

Abdulloh Mahmudov – Toshkent shahri Uchtepa tumani 81-maktab 10-sinf o'quvchisi – oltin medal;

Azizbek Nazarov – Toshkent shahri Olmazor tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab, 11-sinf o'quvchisi – oltin medal;

Sohibjon Dilmurodov – Toshkent shahridagi Prezident maktabi 10-sinf o'quvchisi – bronza medal;

Shahzoda Hakimova – Toshkent shahri Olmazor tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabi 11-sinf o'quvchisi – kumush medal.

2013-yildan buyon medal jamg'arish borasidagi umumiy statistikamizda 5 ta oltin, 11 ta kumush va 20 ta bronza medali mavjud. Biz ilova qilayotgan jadvaldagi ma'lumotlarga diqqat qiladigan bo'lsak, jamoamiz medal jamg'arish borasida oxirgi bor 2019-yilda yuz foizlik natijani ko'rsatganligini payqash mumkin. O'shanda 2 tadan kumush va bronza medallari qo'lga kiritilgan. Oradan qariyb 4 yil o'tgach, ya'ni 2023-yilda hozirgacha qayd etgan eng yaxshi natijani ko'rsatishni udaladik. Yana bir faktga diqqat qilaylik, umumiy medallarimiz soni 36 tani tashkil etayotgan bo'lsa, shundan 33 tasini Toshkent shahridagi maktablarda tahsil oladigan o'quvchilar olgan. Viloyatlaridan chiqqan sovrindor o'quvchilar Buxoro hamda Navoiy viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Afsuski, qolgan hududlar ushbu nufuzli olimpiadada medal olish baxtiga muassar bo'lolmayapti. Bizningcha, yaratilgan sharoitlar tafovuti, joylardagi ta'lim sifati darajasining yaqqol bir-biridan farq qilishi ham bunga zamin yaratayotgan bo'lishi mumkin!

Abror POYONOV

Anglamoq bilan anglatmoq. Bu ikki so'zning o'rtasida qanday farq bor? Anglamoqdan chiqib anglatmoqqa yetib borish uchun qadamlar qanchalik o'z o'rnini topib borishi kerak? Avvalo, oddiy bir narsani anglab yetish – insoniylik cho'qqisi tomon qo'yilgan qadamlardan biridir. O'sha anglagan narsasini boshqalarga anglatish esa insoniylik etiqodi tomon yurayotgan odamlar sonini ko'paytirishga o'z hissasini qo'shish bilan barobardir. Yoyinki u o'zi qilgan xatoni anglab yetishi bo'lar yoki to'g'ri yo'lni kech bo'lsa ham his qilish.

UYG'OQ QALB HAMON ORAMIZDA



Inson ichidagi alg'ov-dalg'ov kurashlar uning afsus-nadomatlari, kezi kelganda to'g'ri deb ishongan yo'li aslida teskarisi ekani anglashdek tuyg'uni atrofdagilarga ulashish, anglatish go'yoki ushbu iqrornomasidan boshqalar ham ibrat olishi kerak deya baralla ovozini keng yoyib aytish adabiy tanqidchi Ozod Sharafiddinovdek buyuk shaxsning qo'lidan keldi desak adashmagan bo'lamiz. Ha, u o'zining ustidan g'alaba qozondi. Haqiqiy o'zbek farzandi sifati boshqalarga namuna ko'rsatdi. Ozod Sharafiddinovdek vaziyati taqozo qilib to'g'ri deb o'ylagan va ishongan va insoniy prinsiplari xato ekanligini, shuningdek, qandaydir bosim ostida yashab kelganini bilgan shaxslar minglab-millionlab edi, ammo ular shu jur'atni o'z bo'yniga ololdimi? Ehtimol ichida tan olgandir...

Ammo ko'p maqola va kitoblar muallifi bo'lgan qahramonimiz o'zining anglagan narsasini keyingi avlodlar bilishi uchun ona xalqi oldida o'z e'tiqodini o'zgartirganini meros qilib yozib qoldirdi. O'tgan ish o'tdi deb indamay ko'z yumib qo'yishga olimning yuragi dosh bermadi. Aslida ham kommunistik partiyaga a'zo bo'lish istagining ostida insoniylik va ma'naviy barkamollik barq urib turgandir. Ushbu yo'lga kirib kelishni ustoz quyidagicha tariflaydi: "Esimni tanibmanki, men yurgan yo'llar to'ppa-to'g'ri partiyaga olib keluvchi yo'llar bo'lgan edi. Balog'at yoshiga qadam qo'yishim bilanoq partiyaga a'zo bo'lish, kommunistlar safida odim otmoq hayotimning bosh maqsadiga aylangan edi". Ko'rib turganingizdek, sovet hukumati shu yo'lni va shu tarbiyani ong ostiga singdirib borgan. Zamon hammani birdek o'z domiga tortmasdan qolmagan. Ustozning "E'tiqodimni nega o'zgartirdim?" asarida bolaligidan tortib, umrining so'nggi yillariga qadar bayon etgan. Ma'naviy ozuqani noto'g'ri berishi natijasida o'zlarini baxtiyor sezgan o'sha davr yoshlari to'liq haqiqatni anglashi qiyin kechgan. O'zining mo'jaz olami kommunistlarcha shakllanganini payqash mushkul edi. Aynan XX asrning 50–80-yillarida partiyaning qing'ir-qiyshiq va halollikdan yiroq talablari yillar o'tib o'z o'rnini yo'qota boshladi. Ozod Sharafiddinov bu o'tgan umr – qanchalar notekis yo'llarni bosib xalqning dardiga darmon bo'la olmagan bir partiya a'zosi sifatida yashab kelganini ming afsus nadomat bilan xotirlaydi. Shu o'rinda aytadiki, "Meni va menga o'xshash boshqa millionlarni shu ko'yga solgan partiyadan hazar qilmoq kerak emasmi? Ha, ko'zlar juda kechikib ochildi, aql kechikib kirdi. Lekin men kechikib bo'lsa ham ko'zim ochilganiga shukrlar qilaman".

Ustozning ijodi serqirraligi bilan o'quvchini o'ziga tortmasdan qolmaydi. Tanqidchilik yoki tarjimada Ozod Sharafiddinovning xizmati beqiyos. Aytadiki, "Yangi iymonga ega bo'lmoq uchun esa butunlay poklanmoq shart. Buning uchun qolgan umr yetib bersa, bas!" Guvohi bo'lganimizdek, ustoz umrining oxiriga qadar millatning faxriga aylandi.

Ro'za KARIMOVA,
O'zJOKU talabasi

NUFUZLI XALQARO KIMYO OLIMPIADASI G'OLIBLARI

№	F.I.SH.	Manzil	Ishtirok etgan yili	Medallar
KIMYO				
1	Sharobiddinov Biloliddin Baxtiyor o'g'li	Toshkent shahar	2013	Bronza
2	Artikbaeva Dilshoda Doniyor qizi	Toshkent shahar	2013	Bronza
3	Boltaev Bexzod	Toshkent shahar	2013, 2014	Oltin 2013, Oltin 2014
4	Isaeva E'zoxon	Toshkent shahar	2014	Bronza
5	Boltaev Bobur Matyoqub o'g'li	Toshkent shahar	2014, 2015	Bronza 2014, Bronza 2015
6	Muxsimov Javlon Xusniddin o'g'li	Toshkent shahar	2014	Kumush
7	Yusupalieva Dilnora	Toshkent shahar	2015	Bronza
8	Omonova Charos	Toshkent shahar	2016	Bronza
9	Faxriev Jaxongir	Toshkent shahar	2016	Bronza
10	Shoyunusov Sarvar	Toshkent shahar	2016	Kumush
11	Abduxakimov Javoxirbek Nodirbek o'g'li	Toshkent shahar	2017	Bronza
12	Muxsimov Asilbek Xursand o'g'li	Toshkent shahar	2017	Bronza
13	Xakimov Aziz Tursunmuratovich	Toshkent shahar	2017	Bronza
14	Xakimboeva Dildora Iloxmon qizi	Toshkent shahar	2018	Bronza
15	Alovutdinov Jaloliddin Shavkat o'g'li	Toshkent shahar	2018	Bronza
16	Boirbekov Ulug'bek	Toshkent shahar	2019	Bronza
17	Xaitov Diyor	Toshkent shahar	2019	Bronza
18	Boltaeva Mohira	Toshkent shahar	2019	Kumush
19	Karimov Islomjon	Toshkent shahar	2019	Kumush
20	Sobirov Firdavs Furqat o'g'li	Buxoro viloyati	2020, 2021	Bronza 2020, Bronza 2021
21	Isaeva Dilshodakhon	Toshkent shahar	2020	Kumush
22	Mirakbarov Mirumid Hojiakbar o'g'li	Toshkent shahar	2020	Kumush
23	Boymahamadov Ikromiddin Axmadjon o'g'li	Toshkent shahar	2021, 2022	Bronza 2021, Kumush 2022
24	Muxtorxajeva Durdona	Toshkent shahar	2021	Bronza
25	Amanov Sobirjon Zoir o'g'li	Toshkent shahar	2021	Oltin
26	Shaymatov Sherzod Shaxobiddin o'g'li	Navoiy viloyati	2022	Kumush
27	Badalova Maftuna Lutfullo qizi	Toshkent shahar	2022	Kumush
28	Jamolov Azimjon Ravshan o'g'li	Toshkent shahar	2022	Kumush
29	Dilmurodov Sohijon Farhodjon o'g'li	Toshkent shahar	2023	Bronza
30	Xakimova Shaxzoda Bahriddin qizi	Toshkent shahar	2023	Kumush
31	Maxmudov Abdullox Alisher o'g'li	Toshkent shahar	2023	Oltin
32	Nazarov Azizbek Farrux o'g'li	Toshkent shahar	2023	Oltin

HAVAS HAM BAXT

Qadim Nurota zamini azaldan baxshi-shoirilar-u, ilm-fan peshvolari maskani hamdir. Har gal qo'lim-ga qalam olib neki so'z bitar bo'lsam bu zamindagi murabbiylar, albatta, yodimga tushadi.

Nurotalik Rajab aka G'afforov 65 yoshda. Nurota shahridagi 18-avtobazada 40 yilga yaqin tuman markazidan qishloqlarga qatnaydigan avtobus haydovchisi bo'lib ishlagan. Yurt kezman, odamlar orasida bo'lgan doim. "Kasbimdan nolimayman – deydi u kishi. – Har gal avtobusga ziyoli siymo chiqsa, albatta, joy topib berardim. Ziyolining suhbatidan bahramand bo'lgim kelardi. Shu bois, farzandlarimni, albatta, ziyoli va oliy ma'lumotli bo'lishini havas qilganman. Biz ishlagan zamonlarda texnika kam edi. Odamlar shofyorlarni kam ko'rishmasdi. Menda ziyoliga havas ustun bo'lgan. Shu sabab, kechqurun birinchi qiladigan ishim – ayolim bilan bolalarimizning bugun nechchi baho olganini surishtirardik, bilganimcha o'rganganini so'rab ham ko'rardim. Shuni

bilgan farzandlarim kechqurungi "imtihon"ga darsdan kelib ham tayyorgarlik ko'rgani rost. U paytlar bizning Nurotada dong'i chiqqan xalq e'tiboridagi muallimlar ko'p edi. Bugungi yangi avlod muallimlar ularning ishini davom ettirmoqda. Turmush o'rtog'im Zaynabxon bilan 4 o'g'ilni katta qildik. To'ng'ich o'g'lim Farhod G'afforov SamDUNing matematika fakultetini bitirgan. Hozir Samarqand shahrida maktab direktori. Taqdirni qarangki, u bilan hayotini bog'lagan kelinim Munisa ham Navoiy pedagogika institutini bitirgan. Ularning uch o'g'li bor. Yosh bo'lsa-da, ulardan ikkitasi kurash bo'yicha chempion bo'ldi. Albatta, quvonasizda. Keyingi o'g'lim tadbirkorlik yo'lidan ketdi. Nusrat o'g'lim politexnika universitetining tog'-kon mutaxassisligi fakultetini bitir-

gan. Kelinim o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi. Hayot o'g'lim san'atshunos, kelinim Gulnoza esa O'zMUNing tarix fakultetini tugallagan. Hozir bir qishloq nevaralar orzu-havasi bilan yashayman. O'zim yetmagan orzularga farzandlarim yetdi. Bundan behad mamnunman. O'llohga beaddad shukr!"

Rajab aka bilan suhbatlashib, bugungi ma'naviyat, ota-onalarning tarbiyaga mas'ulligida ana shu oddiy bir odamdagi oddiy havasning qanchalar katta ahamiyatga egaligini his qildim. Qaniydi, barcha ota-onalar kasbi-kori qandayligidan qat'i nazar, ana shu havas bilan yashashsa.

Nargiza opaning chempion qizi

Nargiza opa Homitova Nurota shahridagi ixtisoslashgan ta'lim maktabida jismoniy tarbiya fanidan murabbiy. Boshqalar qatori o'zi ham o'qituvchi bo'lgani bois, barcha o'quvchilarining har jihatdan barkamol voyaga yetishlarida mas'ul. Qolaversa, turmush o'rtog'i Anvar aka bilan o'z farzandlariga ham. Keyingi ikki yilda u kishining farzandlari Mehrangiz Axtamova bir qator fan olimpiadalarida o'z bilimni namoyish etib, O'zbekistonimiz dovruq'ini ko'tarmoqda. Mehrangiz Navoiy shahridagi Prezident maktabida tahsil olib ustozlari ishonchini qozondi. Ayni vaqtda ana shu maktabning 11-sinf o'quvchisi. U bir necha marotaba biologiya fani bo'yicha viloyat va Respublika olimpiadalarida birinchilikni qo'lga kiritdi. O'tgan yili Du-



bay shahrida 80 ta davlatdan 300 nafar ishtirokchi qatnashgan 34-xalqaro kimyo fani olimpiadasida faxrli o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, o'tgan hafta Yaponiyada bo'lib o'tgan "Sakura sayts" xalqaro bel-lashuvida muvaffaqiyatli qatnashib qaytdi.

– Mehrangiz singari o'quvchilarimiz ko'pchilikni tashkil etadi, – deydi Mehrangizning murabbiysi, xalq ta'limi a'lochisi, "Shuhrat" medali sohibi Zebo Ro'ziqulova. – Avvalo, unda o'qituvchining o'rgatayotgan saboqlarini qunt bilan o'zlashtirish qobiliyati kuchli. U biologiya va kimyo fanlariga astoydil ishtiyoqmand. Qolaversa, ingliz tilini mukam-

mal o'zlashtirgani bois, biologiya va kimyo fanlarini ingliz tilida o'zlashtira oladi va mustaqil o'rganadi. Albatta, bu g'alabalar bilan to'xtab qolmaymiz.

Mamlakatimiz Prezidenti ta'lim masalalariga bag'ishlangan yig'ilishlarda, bugungi yoshlarni har jihatdan mukammal tarbiyalash, dunyoga bo'ylashadigan yangi avlodni voyaga yetkazishga undaganida Mehrangiz kabi iqtidor sohiblarini nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Kelgusida iqtidorli qizimizning intilishlari yanada yuksak bo'lsin! Demakki, qadim Nurotadan ulug' nurlar abadiy taralib turadi.

O'ljaboy QARSHIYEV



ONAJON

Onam – Oqdaryo tumanidagi 1-, 2-, 4-maktablarda uzoq yillar dars bergan, hozir keksalik gashtini surayotgan muallima Mardibuvi Bobobekovaga.

Toshdan qattiq erur bu tirikchilik, Toshni ham yorasan to'g'ri kelsa gar. Tarqab ketmasin deb qarindoshchilik, Dillarga payvandsan go'yo chilangar.

Ukalar, singillar, urug'lar jamin, Oila, nabira, yana ming bir jon. Dardin aritasan, qo'ymaysan kamin, Qanday uddalaysan aytgil, **onajon?**

Vaqtni bo'ysundirmoq ilojisiz bir ish, Sahardan shomgacha hamrohing mehnat. Mijja qoqmasang ham chekmaysan tashvish, Boringni bersang ham qilmaysan minnat

O'zingni urasan o'qqa-cho'qqa ham, Taqmaysan shoda-yu marvarid, marjon. Osh-tuzni mayizdek teng ko'rib baham, G'ussani yutasan qanday, **onajon?**

Shart emas xoh tanish, xoh u notanish, Barchasiga birdek bo'lasan malham. Bo'lsada o'zingda yirtiq tosh kalish, O'zgaga tutasan yangisin har dam.

Dard-u bemorlikni aslo sezdirmay, Mehnatdan tinmayсан holing yarimjon. Barchasiga yarab, bezmay-bezdirmay, Qanday taslim etding ishni, **onajon?**

Turmushning mushtiga yengilmay sira, Dard-u azobni ham yashaysan sizlab, To'rt tomoning mehnat, xuddi asira, Ro'zg'orning g'orini yamaysan izlab.

Tumshug'ida xo'rak tashib ming halak, Bolasiga tutgan qushdeksan har on. Mitti chumchuq kabi doim jonsarak, Qachon tin olasan aytgil, **onajon?**

Qishloqda eng avval qizlar safidan O'qigan ham o'zing, elni etib lol, Ammo, o'qishni ham mehnat nafidan Bitirganing rost-ku, shaffof-ku, zilol.

Dunyo ishlariga yo'qdir xotima, Hatto torta olmas qirg tuya karvon, G'ovlab ketmaydimi barcha ish, nima? Seniki jonmasmi yoki, **onajon?**



Senda orzu yo'qmi yo o'zga havas? Mehnatsiz o'tsa kun – tatimasmi yo, Bir zum orom olgin, bo'ldi, yetar, bas! Ishning tubi yo'qdir, yo'qdir intiho.

Naqlni ham buzdin, aylading yolg'on, Deydilar: ayolda bormish qirg'ta jon. Senda undan oshiq o'n karra chandon, Qavargan qo'llaring guvoh, **onajon.**

Ko'rdim ayollarni yuzlari gulgun, Yarashgan tabassum, egnida ohor, Ularda ish yo'qmi, qo'ynida tugun, To'yima-to'y yuribdi, har kuni bahor. Bir dam o'tir endi, tin ol, qo'l siltab

O'zi qo'llagaydir seni Xudojon Ko'zimdagi tomchi yoshdek miltillab, To'kilib ketmasin joning, **onajon!**

Ey ko'ngli sochlari kabi oq onam, O'zingni ham o'yla, o'ynab-kulib yur! Unut ish-tashvishni, kez butun olam, Xushnud et dilingni, men topay huzur.

Bo'ldi, qolgan ishni qilaman o'zim, O'tirgin yonimda qilib duojon! Umringga umrlar, joningga to'zim, Bersa faqat senga bersin, **onajon!**

Sherzod OCHILOV

Aziz NESIN

MAKTAB VA OILA HAMKORLIGI

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

Odamlarni sira tinchlantirib bo'lmadi. Qancha urinmaylik iloji yo'q. Hamma egallab olgan o'rnidan turib baqirib-baqirib gapirardi. Bu turishda so'z navbati hali-beri menga yetib kelmaydi shekilli, o'rnimdan shartta turib:

– Bir daqiqa, hurmatli xonimlar va beylar, bir daqiqa, – deya so'z boshladim.

So'zni boshlashga boshladim-u davomiga nima deyarimni bilmasdan so'zimni yanada diqqat bilan tinglashlari uchun Nasriddin Xo'janing bir latifasini ham qo'shib o'tdim. Oxiri esimga kelmaganidan yarmiga kelganida:

– Yakunini o'zingiz yaxshi bilasizlar, – dedim.

Ular gapimga quloq solishmayotgandi. Navbat boshqa

birovga o'tib ketmasaydi. Ular, ayniqsa o'qituvchilar chamamda meni maktabda olib borilayotgan ishlarga qarshi deb o'ylashyapti, agar shunday bo'lsa qizimni sinfida qoldirib yuborishmasaydi, deya qo'rqdim.

– Bolalarimiz sinfdan sinfga o'ta olishmasa, barcha ayb ota-onalarda, – dedim. – Bolalarining taqdiridan bexabar ota-onalar. Hattoki farzandi qaysi maktabda, nechanchi sinfda ta'lim olishayotganini ham bilmaydigan otalar bor. – Yanada jo'shib gapira ketdim. O'qituvchilar meni olqishlashdi.

Oq sochli ayol:

– Kech kirib qoldi, – dedi, – xo'p desangizlar qolgan gaplarni keyingi yig'ilishda suhbatlashsak.

(Hikoya)

– Hurmatli ustoz, o'zi endi so'z boshlagandim axir, – dedim.

Maktabdan chiqarkanmiz, o'qituvchilar menga minnatdorlik bildirishdi.

Uyga kirib borishim bilan xotinim:

– Nega bunchalik kech kel-yapsiz, qayerlarda yurgandingiz o'zi, – deya o'shqirdi. Soatga qaragam, o'nta kam yetti...

– Maktabga, yig'ilishga bordim, – dedim. – Shunday zo'r gapirdim, asti qo'yaverasan, hamma meni olqishladi. Bilasanmi nima dedim, eshit, shartta o'rnimdan turib ota-onalar bolasining o'qishi bilan qiziqishmaydi, farzandlari sinfdan

sinfga o'tolmay qolib ketguday bo'lsa, aybni darrov ustozlarga to'nkashadi, dedim.

Qizim aftini bujmaytirib:

– Yo tovba, dada, – dedi, – barcha o'qituvchilar, yana dadangiz kelmadimi, deya so'rashdi. Nega kelmadingiz yig'ilishga?

Ayolim battar g'azablandi:

– Kap-katta odam bolaning oldida yolg'on gapirishga uyal-maysizmi, – dedi. – Kechgacha ko'chada daydiysiz, yana kamiga uyga kelib yolg'on gapirishingizga qarang. Tovba, maktabmish, yig'ilishmish-a...

– Bordim axir, qizalog'im, – dedim, – hattoki so'zga ham chiqdim.

Qizim:

– Men o'sha yera edim, dada, – dedi.

– Sen Horhor qizlar umum-

ta'lim maktabida o'qimaysanmi?

– Dadajonn-n, – dedi cho'zib, – qanaqa Horhor, men Beyazid litseyining bitiruvchisiman.

Ayolim:

– Aa-a, – dedi angrayib, – Modern kollejga bormayapsanmi?

– Uff, oyi, sizam boshlamang, u yerdan ketganimga bir yildan oshdi.

– Tarbiyasiz! – deya tanbeh berdim. – Odam ota-onasiga qayerda, nechanchi sinfda o'qiyotganini aytmaydimi axir? E yaramas, bu zamon bolalarida ota-onaga hurmat-purmat degan narsa qolmagan...

Turk tilidan
Rahmat BOBOJON
tarjimai.

Ta'kid

KITOBXONLIK MADANIYATI – MADANIYATLAR MAG'ZIDIR

Taraqqiyot sur'ati yuqori davrimizda kitob va kitobxon mavzusining yanada dolzarblashayotgani ikki jihatdan muhim: yaxshi tomoni, mutolaa ehtiyoji yuksalib, shaffoflashayotir, xavotir tarafi esa ommaviy kitobxonlik susayib, betiyiq kitoblar rastalarda ko'paymoqda.

Kitob – laganbardorlik qilmaydigan do'st. Uning inson kamolotidagi o'rnini boshqa hech bir vosita bosa olmaydi. Shunday ekan, bugun ana shu do'st bilan bog'liq holda ko'p tilga olinayotgan kitobxonlik qanday mezon va talablarni qamrab oladi? O'zi, aslida, kitobxonlik madaniyati qanday bo'lishi kerak?

Kitob bashariyatning, jumladan, millatning, alohida shaxsning hayotida, takomilida qanchalar muhim o'rin tutishi, uning o'rnini hech bir vosita bosa olmasligi kunday ravshan. Olloh o'zining mislsiz qudratini namoyish etish uchun olamni, olamlarni, ularning gultoji sanalmish odamni yaratar ekan, uning yashash tarzi yo'l-yo'riqlarini ham kalom – kitob tarzida o'z elchilari orqali yuborgan, bu muqaddas kitoblar-siz bashariyat tamadduni tarixini tasavvur etish mumkinmi? Aslo! Yer yuzidagi turli mamlakatlar, millatlarning kitobat tarixini ko'z oldingizga keltiring, o'sha yurt xalqlari, millatlari tarixi, ularning tafakkur darajasi, o'y-mushohadalari, orzu-intilishlari, topganlari va yo'qotganlari, kuchli hamda ojiz jihatlari, quvonch-u qayg'ulari – barcha-barchasi o'sha kitoblar sahifalarida muhrlanib qolgan.

Shukrki, ko'plab turkiy uluslar qatori biz, o'zbeklarning turli davrlarda turli xil yozuvlarda muhrlanib qolgan olamga ko'z-ko'z qilgulik boy yozma yodgorliklarimiz bor. Bebaho tarixiy, diniy, ilmiy, adabiy asarlar yozib qoldirgan yurt-

doshlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Azaldan xalqimizda, ayniqsa, adabiy-badiiy did nihoyatda yuksak bo'lgan, turkiy, forsiy, arabiy tildagi asarlar birday o'qilavergan, hadisxonlik, yassaviyxonlik, sa'diyxonlik, bedilxonlik, navoiyxonlik keng urf bo'lgan, so'z san'atiga shaydolik tufayli bo'lsa kerak, odamlar hatto bozorda oldi-sotdini ham she'riy tilda vazn va qofiyaga solib ado etishgan, tabobatga, odob-axloqqa, ilm-fanga oid yo'l-yo'riqlar ham she'riy yo'lda bitilgan.

Kitobxonlik madaniyati tabiiy ravishda o'zgaruvchan, toblanuvchan hodisadir. Uning o'zgaruvchanligi davr, zamon va makon bilan chambarchas bog'liq. Inson o'zi yashaydigan jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shunday ekan, u istaydimi-yo'qmi, shu jamiyatning ob-havosidan bahra olib yashaydi. To'la bahra olish uchun unda boxabarlik ishtiyoqi bo'lmog'i zarur. Boxabarlikni esa mutolaasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. BUGUN farovon, go'zal va to'kis yashash uchun inson O'TMISH va KELAJAKni bilishga, anglashga ehtiyoj sezadi – bunga ham faqat mutolaa orqali erishadi. Bugungi kitobxonlik madaniyati mezonlari mazkur tushunchalar doirasida gavdalanadi.

Mutolaa – inson ehtiyojlarining gul-

toji. Kitobxon, kitobsevar, kitobparvar, kitobyig'ar... Bular ana shu ehtiyojning pillapoyalaridir.

– Kitobxon va ijodkor bir-birini to'ldiradi. Yozuvchining kitobxonlik darajasi uning asarlariga ko'chib, keng kitobxonlar orasidan aynan o'z darajasidagi mutolaa shinavandalarini topadi. Bugun aksariyat badiiy asarlarning saviya jihatidan qoniqarsiz holatda ekani yozuvchilarning kitobxonlik darajasi sustligi bilan bog'liq. Tajribadan ayonki, yozuvchilarning tafakkur ko'lami, saviyasi ularning kitobxonlik darajasidan yaqqol dalolat berib turadi. Turkiy tilda



eng “ko'p va xo'b” yozgan Navoiyga noyob iste'doddan tashqari kitobxonlik bobida teng keladigan shoir mumtoz adabiyotimiz tarixida bormi? Menimcha, yo'q.

“Abdulla Qahhor arxivi katalogi”ni varaqlab ko'ring. Adib kekxa va xasta bo'lishiga qaramay, umrining oxiriga qadar adabiy jarayondagi har bir yangilikni kuzatib, ular haqidagi mulohazalarini yondaftariga qayd qilib, ayrimlarini matbuotda maqola tarzida e'lon qilib borgan. Shaxsiy kutubxonasida o'zi sin-

chiklab mutolaa qilgan jahon adabiyoti, adabiyotshunosligi, falsafasi, ruhshunosligiga oid noyob kitoblar son-sanoqsiz...

Kitob tanlash – anglab bo'lmash sehlarga boy ruhiy jarayon. To'g'ri, yoqtirgan asarlariga qarab odamning kimligini bilish mumkin. Lekin bunday yondashuv mutlaq hukm-xulosa chiqarish uchun asos bo'lolmaydi. Chunki kitob tanlashning sabablari ko'p: mutaxassislikka ko'ra o'qiladigan kitoblar bor, kimdir o'tkinchi qiziqishlaridan kelib chiqib kitob izlaydi. Shunchaki vaqt o'tkazish uchun, shuur-tafakkurga dam berish, atayin chalg'ish maqsadida o'qish mumkin.

Hammamiz kitob o'qishning foydali ekanligini eshitganmiz. Lekin uning foydaliligi aynan nima-da? Mutolaa tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Qanchalik g'alati tuyulmasin, kitob o'qish tinglash qobiliyatini oshiradi, boshqalarni oson tushunishga yordam beradi. Bu ayniqsa kitobni ovoz chiqarib o'qiganda yanada samarali bo'ladi. Mutolaa ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Obafemi Avolau universiteti pedagoglari boshlang'ich sinf o'quvchilarining mashg'ulotlariga mavzuli komikslarni kiritishganida, suratlar va so'zlar aralashmasi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishini aniqlashdi. Kitoblar kattalarga ham ana shunday ta'sir ko'rsatadi.

Darhaqiqat, kitob tanlashda, tanlab o'qishda gap ko'p. Ayniqsa, adabiyotning o'zida xilma-xil oqimlar, tamoyillar, tur va janrlar, usul va uslublar uchun eshiklar keng ochib qo'yilgan zamonada!

Oqila TO'RAQULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU dotsenti

Musoyev Tohir Yaxyoyevichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha (*“Оптимизация диагностической и хирургической тактики при лечении больных с панкреонекрозом осложненный сепсисом”*) *“Sepsis bilan asoratlangan pankreonekroz kuzatilgan bemorlarni davolashning diagnostik va xirurgik taktikasini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 16-noyabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Xaydarova Sarvinov Akramovnaning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha (*“Гендерные особенности иммунно-эндокринного статуса при атипичной стенокардии”*) *“Atipik stenokardiyada immun-endokrin holatining gender xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 16-noyabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Arziyeva Gulnora Bo'riyevnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha *“Kuyish kasalligi bo'lgan homilador ayollarni olib borishni maqbullashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.102.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 14-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 70-“a” uy.
SamDTUning 2-son klinikasi
(Ko'p tarmoqli ixtisoslashgan bolalar xirurgiya markazi).
Tel/faks: (66) 233-58-92, 233-79-03; e-mail: shodikulovagulandom@mail.ru

Raximova Matluba Naimovnaning 11.00.03 — Qurug'lik gidrologiyasi. Suv resurslari. Gidrokimyo ixtisosligi bo'yicha *“Yer usti suvlarining gidrologik va gidrokimyoviy rejimlari, ularni gidroekologik va irrigatsion sifatlarini baholash(Sirdaryo daryosining o'rta oqimi misolida)” mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27/30.12.2019.Gr.47.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 22-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Bodomzor yo'li 1-tor ko'chasi, 72-uy.
Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot institutining majlislar zali.
Tel/faks: (71) 235-85-12; e-mail: info@nigmi.uz

Tyukmayeva Aida Maratovnaning 09.00.01 — Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha *“Falsafiy matnlarni talqin qilishning umumiy nazariyasi sifatidagi germenevtikaning konseptual-metodologik jihatlarini” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 23-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU, Madaniyat saroyi binosi.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Xasanov Bobur Rustam o'g'lining 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha *“Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida javdar yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi, Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot insituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/31.03.2023.Qx.159.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 25-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy. Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot insituti.
Ma'muriy bino. 2-qavat, anjumanlar zali.
Tel/faks: (74) 373-12-05, 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru

Turakulova Aziza Sanjar qizining 19.00.05 — Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha *“Yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga vasiy oilalar ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ta'siri” mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston MilliyuniversitetihuzuridagiilmiydarajalarberuvchiPhD.03/30.12.2021.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 24-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU, Ijtimoiy fanlari fakulteti binosi, 4-qavat, 409-xona.
Telefon: (71) 246-67-72; e-mail: nauka@nuuz.uz

Salomov Kudrat Mengkobilovichning 14.00.04 — Otorinolarinologiya ixtisosligi bo'yicha (*“Комплексная диагностика и совершенствование лечения дисфонии”*) *“Disfoniyaning kompleks tashxislash va davo samaradorligini oshirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 04/05.06.2020.tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 18-noyabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/fakc: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Zuparov Kamoliddin Farxadovichning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosliklari bo'yicha *“Operatsiyadan keyingi ventral churralarda allogernioplastikaning klinik-immunologik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 23-noyabr kuni soat 14:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100118, Buxoro shahri, Navoiy ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Abduraimova Gulzoda Abduvaliyevnaning 14.00.33 — Jamiyat salomatligi. Sog'liqni saqlashda menejment ixtisosligi bo'yicha *“Tug'ruqqa yordam berish tizimining tibbiy-ijtimoiy jihatlarini optimallashtirish perinatal yordam ko'rsatish sifatini yaxshilash istiqboli” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 15-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Xolmuratova Baxtigul Nurmuhimmat qizining 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha *“Birlamchi bosh og'riqlari klinik kechishining gender xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/05.05.2023. Tib.30.04 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 30-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-78-25; e-mail: info@tma.uz

Umirova Surayyo Mamurjonovnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha *“Koronavirus o'tkazgan bemorlarda diabetik polineyropatiyalarining klinik kechish xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/05.05.2023. Tib.30.04 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 30-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-78-25; e-mail: info@tma.uz

Boltaboyeva Hulkaroy Hamidullo qizining 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha *“Mehmet Akif Ersoy va Fitrat asarlarida ma'rifatchilik g'oyalarining badiiy talqini” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 30-noyabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Abdullayeva Marxabo Raxmonkulovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha *“Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari(Agata Kristi asarlarining o'zbekcha tarjimalari misolida)” mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 30-noyabr kuni soat 10:00dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

“Ma'rifat”—“Учитель Узбекистана” gazetolari, “Boshlang'ich ta'lim” jurnali tahrir hay'ati va jamoalari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, jonkuyar rahbar, pedagog va olim
Gulandom ALIMOVaning
vafoti munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

“Marifat” — BIZNING GAZETAMIZ VA BIZNIKI BO‘LIB QOLSIN!

Bir guruh maktab o‘qituvchilarining ta‘lim tizimi rahbarlariga, barcha maktab o‘qituvchilariga murojaati

Hurmatli davlat idoralari va ta‘lim tashkilotlari rahbarlari, qadrli hamkasblar, umumta‘lim maktablarining fidoyi va zahmatkash o‘qituvchilari, biz mamlakatimizning turli hududlaridagi umumta‘lim maktablarida faoliyat yurituvchi bir guruh o‘qituvchilar sizlarga yurtimiz kelajagiga daxldor o‘ta muhim masala yuzasidan murojaat qilmoqdamiz.

Ma‘lumki, hozirgi zamonda davlatning dunyoda tutgan darajasi va mavqeyi o‘sha mamlakatda ta‘lim va ilm-fanning qay darajada rivojlanishiga bog‘liq bo‘lmoqda. XXI asrda inson resurslari tabiiy resurslarga qaraganda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqobatbardosh va malakali inson resurslari esa faqatgina ta‘lim darajasi yuqori, malakali va fidoyi o‘qituvchilar mavjud bo‘lgan sharoitdagina shakllanadi. Malakali va bilimlilar, tajribali va yetuk

o‘qituvchilarning zamon bilan hamnafas, o‘zaro tajriba almashgan holda faoliyat yuritishida bosma ta‘lim nashrlarining o‘rni beqiyosdir. Ammo so‘nggi yillarda majburiy obunaga qarshi kurash bahonasida o‘qituvchilar va bosma ta‘lim nashrlari o‘rtasidagi aloqa deyarli uzildi. Har yili ko‘plab gazeta va jurnallar yopilmoqda. Mantiqiy olib qaralganda bu milliy fojia. O‘z vaqtida yuz minglab nusxalarda nashr etilgan, mamlakatimiz ziyolilarining otaxon nashri — “Ma‘rifat” gazetasi ham og‘ir ahvolda, yopilib ketish darajasiga kelib qolgan.

Bosma nashrlar, xususan, ta‘lim nashrlari rivoji uchun xizmat qiladigan Prezident Qarorlari(2022-yil 11-maydagi 241-PQ va 2022-yil 27-iyundagi 294-PQ)da ta‘lim muassasalarini ta‘lim nashrlari, xususan “Ma‘rifat” va “Учитель Узбекистана” gazetalar

bilan ta‘minlash ko‘zda tutilgan edi. Afsuski, mazkur qarorlar ijrosi mas‘ul rahbarlar tomonidan yetarlicha ta‘minlanmadi.

Hurmatli davlat hokimiyati organlari va ta‘lim muassasalari rahbarlari! Sizlardan Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qarorlarning ijrosini ta‘minlashlarigizni so‘raymiz. Zero, bu bilan ham xizmat burchingizni bajargan, ham mamlakatimiz kelajagiga hissa qo‘shgan bo‘lar edingiz. Chunki ta‘lim muassasalariga yetib borgan “Ma‘rifat” gazetasining har bir soni, o‘sha ta‘lim muassasasida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning malaka va saviyasining, tajriba va mahoratining, o‘quvchilarning esa bilim sifatining o‘shishiga ko‘mak beradi.

Hurmatli o‘qituvchilar, aziz hamkasblar! Uchinchi Renessans poy-

devorini yaratish davrida maktablarda faoliyat yuritayotgan siz-u bizning zimmamizdagi mas‘uliyat buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan Birinchi va Ikkinchi Renessans davridagi buyuk allomalar, millatimiz ravnaqi uchun zahmat chekkan ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz zimmasida bo‘lgan mas‘uliyatdan aslo kam emas. Shunday ekan, keling, bilim va mahoratimizni oshirish, o‘zaro tajriba almashish, o‘qish va o‘rganish uchun xizmat qiladigan sevimli gazeta — “Ma‘rifat”ga obuna bo‘laylik. Biz ulkan kuchmiz. Agar obuna bir kishiga qimmatlik qiladi desangiz, 5-6 kishi birikib obuna bo‘lsak ham, sevimli gazeta — “Ma‘rifat”ga obuna bo‘laylik!

Hurmatli hamkasblar, sevimli gazeta — “Ma‘rifat”ga obuna bo‘laylik!

Anor MAHMUDOVA, O‘zbekiston Qahramoni, Gurlan tumanidagi 5-maktab direktori

Turg‘un AZLAROV, O‘zbekiston Qahramoni, Shayxontohur tumanidagi 40-maktabning faxriy o‘qituvchisi

Muhabbat SHAROPOVA, O‘zbekiston Qahramoni, Qarshi shahridagi 2-IDUMI o‘qituvchisi

Normamat ESHONQULOV, Oltinsoy tumanidagi 63-maktabning tarix fani o‘qituvchisi, Xalq ta‘limi a‘lochisi

Usmon JO‘RAYEV, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi, Bo‘ka tumanidagi 8-maktabning tarix fani o‘qituvchisi

Rahmatulla KARIMOV, O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi, Uchtepa tumanidagi 81-maktabning matematika fani o‘qituvchisi

Xudoyberdi KOMILOV, faxriy o‘qituvchi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

Mahmuda VALIYEVA, “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi, Yunusobod tumanidagi 274-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Aziza BOYMURODOVA, Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 28-maktab direktori, Xalq ta‘limi a‘lochisi

Gulchehra ASHUROVA, Termiz shahridagi 13-maktab direktorining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Xalq ta‘limi a‘lochisi

Dilfuza G‘AZNAYEVA, Yashnobod tumanidagi 340-maktab direktorining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Xalq ta‘limi a‘lochisi

Dildor NURMUHAMMEDOVA, Termiz shahridagi 23-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta‘limi a‘lochisi

Sanobar BERDIYEVA, Mirzo Ulug‘bek tumani-dagi 286-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta‘limi a‘lochisi

Nurali XUDOYBERGENOV, Chinoz tumanidagi 44-maktabning rus tili fani o‘qituvchisi, Xalq ta‘limi a‘lochisi

Dilnoza NARZULLAYEVA, Vobkent tumanidagi 21-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Rahbaroy MELIBOYEVA, Uchko‘prik tumanidagi 5-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Ziyoda MAMAJONOVA, Kosonsoy tumanidagi 28-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Erkinjon YARASHEV, Zarafshon shahridagi 13-IDUM o‘qituvchisi

“Ishonch” gazetasining 2023-yil 10-oktabr sonidan olindi.

Kuch - bilim va tafakkurda

Marifat

Xalq ziyolilari gazetasi

DAVLAT TA'LIMDA "BOSH PLAN"NI BELGILASHI KERAK!

"Marifat" — BIZNING GAZETAMIZ VA BIZNIKI BO'LIB QOLSIN!

Bir guruh maktab o'qituvchilarining ta'lim tizimi rahbarlariga, barcha maktab o'qituvchilariga murojaati

Hurmatli davlat idoralari va ta'lim tashkilotlari rahbarlari, qadrli hamkasblar, umumta'lim maktablarining fidoyi va zahmatkash o'qituvchilari, biz mamlakatimizning turli hududlaridagi umumta'lim maktablarida faoliyat yurituvchi bir guruh o'qituvchilar sizlarga yurtimiz kelajagiga daxldor o'ta muhim masala yuzasidan murojaat qilmoqdamiz.

Ma'lumki, hozirgi zamonda davlatning dunyoda tutgan darajasi va mavqeyi o'sha mamlakatda ta'lim va ilm-fanning qay darajada rivojlanishiga bog'liq bo'lmoqda. XXI asrda inson resurslari tabiiy resurslarga qaraganda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqobatbardosh va malakali inson resurslari esa faqatgina ta'lim darajasi yuqori, malakali va fidoyi o'qituvchilar mavjud bo'lgan sharoitdagina shakllanadi. Malakali va bilimlilar, tajribali va yetuk

DIQQAT!

“Ma‘rifat” va “Учитель Узбекистана” gazetalariga obuna uyushtirganlarni rag‘batlantirishga qaror qildik.

Bu yil tahririyat tomonidan qo‘yilgan obuna narxlari yanada hamyonbop.

• Ma‘rifat” gazetasi uchun — 1 yillik obuna narxi 460 000 so‘m.

• Учитель Узбекистана” gazetasi uchun — 1 yillik obuna narxi 358 800 so‘m.

Shundan kelib chiqib, obuna narxining 10 % ni gonorar sifatida beramiz. Gonorar olish uchun uyushtirilgan obunaning eng kam miqdori — 100 dona.

Ya‘ni, masalan:

- 100 dona “Ma‘rifat” obunasi uchun — 4 mln 600 ming so‘m;
- 200 taga — 9 mln 200 ming so‘m;
- 500 taga — 23 mln 300 ming so‘m;
- 1000 ta bo‘lsa — 46 mln 600 ming so‘m beramiz.
- 100 dona “Учитель Узбекистана” obunasi uchun — 3 mln 588 ming so‘m;
- 200 taga — 7 mln 176 ming so‘m;
- 500 taga — 17 mln 940 ming so‘m;
- 1000 ta bo‘lsa — 35 mln 880 ming so‘m beramiz.

Murojaat uchun:

(99)040-00-76; (99)866-02-67

Narxlar tahririyat tomonidan qo‘yilgan. Yetkazib berish xizmati narxi tahririyat tomonidan belgilanmaydi.

Kuch - bilim va tafakkurda

Marifat

Xalq ziyolilari gazetasi

DARS TAQSIMOTI — 3

yoxud an'anaviy avgust angllari davom etadi...

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O‘zbekiston maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi
O‘zbekiston oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O‘zbekiston ta‘lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V- 5638. Tiraji 4850

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan
qog‘oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (71) 212-01-50



“Ma‘rifat”dan materiallarni ko‘chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:



Dizayner: Malohat Toshova
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri
Darvozakent ko‘chasi 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko‘chasi 30-uy.